

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/05.05.2023.Fil.60.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERDIYEV AKRAM AKBAROVICH**

**YANGI O‘ZBEK SH/E’RIYATIDA VATAN MAVZUSINING BADIY  
TALQINLARI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Xudayberdiyev Akram Akbarovich**

Yangi o‘zbek she‘riyatida Vatan mavzusining badiiy talqinlari..... 3

**Худайбердиев Акрам Акбарович**

Художественные интерпретации темы Родины в новой узбекской поэзии... 27

**Khudayberdiev Akram Akbarovich**

The artistic interpretations of the theme of the Homeland in new Uzbek poetry... 58

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 62

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/05.05.2023.Fil.60.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERDIYEV AKRAM AKBAROVICH**

**YANGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA VATAN MAVZUSINING BADIY  
TALQINLARI**

**10.00.02 – O‘zbek adabiyoti**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Andijon – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fil1964 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat universiteti veb-sayti ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portalining [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbari:**

**Quronov Dilmurod Haydaraliyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ernazarova Gulnoza Xamrayevna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Tojiboyeva Dilduzaxon Erkinovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

Qo‘qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.07 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon Shahar, Universitet ko‘chasi 129-uy. Tel.: 0(374) 223-88-14; faks: 0(374) 223-88-30; e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon Shahar, Universitet ko‘chasi 129-uy. Tel.: 0(374) 223-88-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**B.M.Rahmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, f.f.d., professor

**N.N.Azizov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash

kotibi, f.f.f.d., (PhD)

**S.K.Qurbonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotida Vatan mavzusi har qanday milliy adabiyotning yetakchi mavzularidan bo'lib, o'zida xalqning tarixiy taqdiri, milliy o'zlikni anglashi va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu mavzu millatlarning o'zligini anglashida va ularning milliy dunyoqarashini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Dunyo adabiyotida vatan mavzusi talqini har bir xalqning tarixiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga mos ravishda amalga oshirilgan. "Vatan" tushunchasi tarixiy jarayonlarda o'ziga xos badiiy shakl va mazmun kasb etgan.

XX asr boshlarida "vatan" tushunchasi milliy ijtimoiy tafakkur va adabiyotda yangicha mazmun kasb etdi. U xalq tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlar va madaniy yuksalishni aks ettiruvchi asosiy konseptga aylandi. Ayniqsa, yangi o'zbek she'riyatida vatan milliy uyg'onish timsoli sifatida namoyon bo'ldi. Vatan obrazining badiiy konsept sifatida o'rganilishi badiiy tafakkurdagi burilish davrini ko'rsatish, milliy tafakkur bosqichlarini yoritish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jihatidan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Qolaversa, jadid adabiyoti nafaqat o'zbek milliy adabiyoti, balki xalq ma'naviyati va badiiy tafakkuri taraqqiyotida ham yangi davrni boshlab bergan hodisadir. XX asr boshlarida jadid adiblari milliy adabiyot va madaniyatni zamonaviy g'oyalar asosida boyitishga intildilar. Bu jarayon vatan obrazini yangicha talqin etib, she'riyatning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi. Jadidlar an'anadan farqli ravishda vatan mavzusini taraqqiyot, hurriyat va milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda ifoda etdilar. Dissertatsiya mavzusi asr adabiyotida o'ta faol bo'lgan obrazning badiiy va g'oyaviy-mazmuniy rivojini bir butun holda kuzatishga yo'naltirishi bilan ham dolzarbdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar tufayli jadid adabiyotining boy merosini ilmiy va adabiy-badiiy jihatdan yangicha talqin qilish imkoniyati yanada kengaymoqda. Jadid ijodkorlarining asarlarida vatan mavzusi an'anaviy va zamonaviy qarashlarning sintezi sifatida gavdalanadi. "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur"<sup>1</sup>. Shuning uchun bugungi kunda milliy adabiyotimiz namoyandalarining vatan mavzusi bilan bog'liq ijodiy merosini chuqur o'rganish, asarlarda aks etgan milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, bajarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2789-son Qarori, 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2995-son Qarori, 2017-yil 13-sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini

---

<sup>1</sup> Prezident Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi "Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak" nutqidan. Xalq so'zi. 2023-yil 23-dekabr. № 274 (6617).

nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son Qarori, 2018-yil 5-apreldagi “O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3652-son Qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotganligi keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmon va qarorlari, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-300-son Qarori, Toshkentda 2023-yil 11-12 dekabr kunlari “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqloq va davlatchilik g‘oyalari” mavzusida o‘tkazilgan ilmiy konferensiyadagi ma‘ruzasi hamda mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** G‘arb adabiyotida vatan mavzusi va “vatan” tushunchasi keng tadqiq etilgan. Adib Xolid esa Markaziy Osiyodagi milliy o‘zlik, jadidchilik harakati, sovet modernizatsiyasi va mustaqillik davrini chuqur o‘rgangan bo‘lib, uning tadqiqotlarida “vatan” va “millat” tushunchalari mintaqaning tarixiy, madaniy va siyosiy kontekstida tahlil qilingan<sup>2</sup>. Shuningdek, E.Ollvort<sup>3</sup>, Kristofer Fort<sup>4</sup>, Sergey Abashin<sup>5</sup>, Hisao Komatsu<sup>6</sup>, M.Mobin Shorish<sup>7</sup> kabi olimlar tadqiqotlarida turkchilik g‘oyalari bilan bog‘liq “vatan” va “millat”

---

<sup>2</sup> Xolid, Adib. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – T.: “Akademnashr”, 2022. – 424 b. Adeeb Khalid. “Pan-Islamism in Practice: The Rhetoric of Muslim Unity and Its Uses” in Elisabeth Özdalga, ed., *Late Ottoman Society: The Intellectual Legacy* (London: Routledge Curzon, 2005), p. 217; Adeeb Khalid. “Society and Politics in Bukhara, 1868–1920”, *Central Asian Survey* 19 (2000), p. 383.

<sup>3</sup> Allworth E.A. *The modern Uzbeks: from the fourteenth century to the present: a cultural history*. Hoover Institution Press, Stanford University, California, 1990; Edward A. Allworth, *The Preoccupations of Abdalrauf Fitrat, Bukharan Nonconformist: An Analysis and List of His Writings* (Berlin: Des Arab. Buch, 2000), p. 12;

<sup>4</sup> Fort, Christopher. Reviewed work(s): *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR*. Adeeb Khalid. Ithaca, NY: Cornell University Press, 2015. Pp. xxi + 415. *Journal of Eurasian Studies* 7 (2016) 221.

<sup>5</sup> Sergey Abashin. *Ethnogenesis and Historiography: Historical Narratives for Central Asia in the 1940s and 1950s / An Empire of Others. Creating Ethnographic Knowledge in Imperial Russia and the USSR*. Budapest – New York, Central European University Press, 2014, pp. 145–170.

<sup>6</sup> Hisao Komatsu. “The Evolution of Group Identity among Bukharan Intellectuals in 1911-1928: An Overview”, *The Toyo Bunko*, 1989, No: 47, p. 118; Hisao Komatsu. “Bukhara and Istanbul: A Consideration about the Background of the Munāzara,” in Stéphane A. Dudoignon and Hisao Komatsu, eds., *Islam in Politics in Russia and Central Asia (Early Eighteenth to Late Twentieth Centuries)* (London: Kegan Paul, 2001), pp. 169–170; Komatsu H. 20. *Yüzyıl başlarında Orta Asyada türkçülük ve devrim hareketleri* (Ankara: Turhan kitabevi, 1993), pp. 8–9.

<sup>7</sup> Mobin Shorish (1984) *Islam and nationalism in west Turkestan (Central Asia) on the eve of October revolution*, *Nationalities Papers*, 12:2, 247-263.

tushunchalari haqida fikr bildiriladi. Shular qatori bir necha xorijiy olimlar ilmiy izlanishlarida milliyatchilik g'oyalari, "vatan" va "millat" tushunchalari turli aspektlarda maxsus tadqiq etilgan<sup>8</sup>. Turkiy dunyo olimlari izlanishlarida ham XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi tarixiy-ijtimoiy sharoit, turkchilik g'oyalari bilan bog'liq vatan tushunchasiga doir qarashlar ham bayon qilingan<sup>9</sup>. O'zbek adabiyotshunos va tarixchi olimlari ilmiy izlanishlarida vatan mavzusi ilmiy maqolalar doirasida ochib berilgan<sup>10</sup>. Shuningdek, M.Xolmo'minova Rauf Parfi ijodida vatan konsepti o'rgangan<sup>11</sup> bo'lsa, M.Javliyev tadqiqotida "Ona Vatan" konseptining milliy-madaniy konseptual belgilari ochib berilgan<sup>12</sup>, O.Sharipova maqollarda aks etgan "vatan" konsepti tahlilini<sup>13</sup>, H.Mamadaliyeva "vatan" konseptining o'zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy tahlilini bajargan<sup>14</sup>. O'zbek adabiyotshunosligida shu kabi bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan

---

<sup>8</sup> Anthony Hyman (1997) Turkestan and pan-Turkism revisited, *Central Asian Survey*, 16:3, 339-351; Yaacov Ro'i. "The Soviet and Russian context of the development of nationalism in Soviet Central Asia" in *En Asie Centrale soviétique Ethnies, nations, États*. 1991. Paris; Pucek, Z. (2009). The local sources of an idea of homeland. *Social context of education*, 47-63; Pochekaev, R. (2019). The Ambition of a Half-Padishah or the Enthusiasm of a Tsarist Administrator? Konstantin von Kaufmann and the Development of Local Government in Tashkent. *Quaestio Rossica*, 7(1), 115–128; Koulos T. Nationalism and the lost homeland: The case of Greece. *Nations and Nationalism*. 2021; 27: 482–496; Anna Triandafyllidou (2022). Religion and nationalism revisited: Insights from southeastern and central-eastern Europe. *Ethnicities*, 24(2), 203–218; Andreas Kappeler. *The Russian Empire: A Multi-Ethnic History*. Published by Routledge, 2001; Kaiser, R.J. (2003). Homeland Making and the Territorialization of National Identity, 18-19; Ventura, F., & Custodi, J. (2023). Nationality Beyond the Nation-State? The Search for Autonomy in Abdullah Öcalan and Otto Bauer. *Geopolitics*, 29 (4), 1400–1421; Shelef, N. G., & Koo, A. Z.-X. (2022). Homelands and Nationalism. *Nationalities Papers*, 50(3), 417–429; Smith, A.D. (2009). *Ethno-symbolism and Nationalism: A Cultural Approach* (1st ed.). Routledge; Bochkareva, I. (2023). Turkestan Urban Self-Government Institutions in the late 19th – Early 20th Century. *Journal of Frontier Studies*, 8(3), 135-156.

<sup>9</sup> Salih Bıçakcı. Homeland and Nation on the Stage. A Review of *Watan* Concept in Abdalrauf Fitrat and Namık Kemal. In: OAKA, vol. 1, no. 2 (p. 149–161), 2006. p. 154; Timur Kocaoğlu, ed., *Reform Movements and Revolutions in Turkistan: 1900-1924* (Haarlem: SOTA, 2001), p. 20; Timur Kocaoğlu, "Ab-durrauf Fitrat: A Central Asian Intellectual with the Changing Stages of National Identity" in Mehmet Saray Armağanı: Türk Dünyasına Bakışlar (İstanbul: Da Yayınları, 2003), p. 402.; Bayram, B. (2024). Kazak Atasözleri Penceresinden Modern Ulus Kimlikler. *Bilig* (108), 27-50; Shylmambetov, S., & Saparov, B. (2023). Some Problems of the Study of the Regional Jadid Movement in Kazakhstan in the Context of the Structure of National Identity. *Bilig*(104), 179-205; Baymirza Hayit - Basmacılar - Türkistan Milli Mücadelesi Tarihi 1917-1934. Ankara. 1997. p.366; Ömer Lütfi Taşcıoğlu. (2018). Vatan kavramı ve türk milleti için vatanın önemi. *Journal of Academic Social Sciences* 71(71):221-230.

<sup>10</sup> Хамдам У. Янги ўзбек шеърляти: Илмий мақолалар/У.Хамдам; –Т.: "Adib" нашриёти 2012. – 304 б. Б.133-138.; Mullaxo'jayeva R. XX asr o'zbek she'riyatida Vatan mavzusi // URL: <http://kh-davron.uz/ijod/rano-mullaxojayeva-xx-asr-ozbek-she'riyatida-vatan-mavzusi.html> (murojaat etilgan sana: 24.11.2020); Камолиддин Ш. Комментарий к книге Адиба Халида «Создание Узбекистана. Нация, империя и революция в раннесоветский период». СПб.: Academic Studies Press / Библиороссика, 2022 // Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Вып. 7 / Отв. ред. Ш.С.Камолиддин. Saarbrücken: LAP, 2022. С. 103-130; Zaynabidin Abdirashidov. Türkistan ceditçilerinin eserlerinde Türkistan algisi. In book: *Tarihî ve edebî metinlerde Türkistan - [cilt 2]* Publisher: Hoca Ahmet Yesevi Uluslararası Türk-Kazak Üniversitesi Avrasya Araştırma Enstitüsü (ERI). 2023.

<sup>11</sup> Xolmo'minova M. (2023). Rauf Parfi ijodida vatan konseptining ifodalanishi. *Экономика и социум*, 8 (111), 231-238.

<sup>12</sup> Javliyev, M. (2022). «Ona Vatan» konseptining turli vositalar va tushunchalar yordamida talqin qilinishi. *Scientific Collection «InterConf»*, (135), 206–210.

<sup>13</sup> Sharipova, O. X. (2023). "Vatan" konsepti qo'llangan maqollarning mavzuiy tasnifi. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(1), 17–21.

<sup>14</sup> Mamadaliyeva, H. B. (2023). O'zbek va ingliz tillarida "vatan" konseptining qiyosiy tahlili. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (12), 372-375.

bo'lsa-da<sup>15</sup>, yangi o'zbek she'riyatidagi vatan mavzusining talqinlari bo'yicha yaxlit dissertatsiya holida tadqiqot bajarilmagan.

Ushbu dissertatsiya "vatan" va "millat" tushunchalarining mohiyati, ularning genezisi, badiiy tafakkurdagi tadriji, umuman, yangi o'zbek she'riyatining turli davrlaridagi o'ziga xos badiiy talqinlari ilk bor monografik jihatdan o'rganilganligi bilan avvalgi amalga oshirilgan ishlardan farq qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** yangi o'zbek she'riyatidagi vatan mavzusining badiiy talqinlarini o'rganish, vatan konseptining ma'no va mazmun jihatidan tadrijiy rivojini tahlil qilish hamda bu mavzuning milliy o'zlik, tarixiy xotira va umuminsoniy qadriyatlarni ifodalashdagi o'rnini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yangi o'zbek she'riyatida "vatan" konseptining yangilanishi va faollashuvi omillarini ochib berish;

jadid adabiyotida yangi "vatan" badiiy konsepti shakllanishini yoritish;

vatan mavzusi xalq tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlar, madaniy yuksalish va o'zlikni anglashni aks ettiruvchi asosiy vositalardan biriga aylanganini asoslash;

XX asr boshlaridan mustaqillik davrigacha o'zbek she'riyatida vatan mavzusining badiiy tasviri, mavzu talqinida ijodkorlarning o'ziga xosligi, davr talablariga mos badiiy ifoda talqinlarini yoritib berish va tasniflash;

vatan mavzusining badiiy talqinlari orqali xalqning milliy va madaniy merosini aks ettirishda milliy adabiyotning o'rnini ilmiy asoslash.

**Tadqiqot obyekti** bo'lib jadidchilik harakati namoyandalarining vatan va milliy masaladagi qarashlari ifodalangan asarlari, jadid shoirlari ijodida hamda sho'ro davri o'zbek she'riyatida yaratilgan vatan mavzusidagi she'rlar xizmat qildi. Zarur hollarda mazkur mualliflarning nasriy asarlari va mavzuga doir ilmiy maqolalariga murojaat qilingan.

**Tadqiqot predmetini** XX asr boshlaridan mustaqillik davrigacha o'zbek she'riyatida vatan mavzusining badiiy tasviri, u bilan bog'liq poetik obrazlar, ifoda vositalari; badiiy-falsafiy mazmuni va uning konkret davr bilan aloqadorligi, mavzu talqinida ijodkorlarda kuzatiluvchi o'ziga xoslik, davr talablariga mos badiiy ifoda kabi masalalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy ishda qiyosiy-tarixiy, biografik, kognitologik, sotsiologik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Yangi o'zbek she'riyatida "vatan" konseptining shakllanishi va taraqqiyoti ilk bor tizimli ravishda o'rganildi. Ushbu konsept faollashuvining tarixiy, diniy,

---

<sup>15</sup> Mamajonov I., & Shermatov I. (2023). Muqaddas dinimizda vatan tushunchasi. *Journal of Fundamental Studies*, 1(6), 98–102; Boboqulova U. (2023) Abdulla Oripov she'riyatida Ona va Vatan obrazlarining poetik uyg'unligi. "USA" international scientific and practical conference topical issues of science, 8(1); Mamiraliyev Q. (2020). Hamid Olimjon va Oybek she'rlarida vatan obrazi. *Ilm sarchashmalari*, 9-son. B.155.

falsafiy va ijtimoiy omillari adabiy-estetik va tarixiy-kontekstual nuqtai nazardan ilmiy asoslab berildi.

Jadid adabiyotida shakllangan “vatan” konsepsiyasining taraqqiyot, hurriyat va milliy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liqligi yangicha talqin asosida yoritildi. Ilgari bu masala asosan siyosiy-ijtimoiy kontekstda o‘rganilgan bo‘lsa, ushbu tadqiqotda jadid shoirlarining badiiy-estetik ifoda vositalari orqali tahlil qilindi.

Vatan mavzusining xalq tarixiy xotirasi, milliy o‘zlik va madaniy yuksalishdagi o‘rni ilk bor she‘riyat asosida tahlil qilindi. She‘riy matnlar orqali bu tushunchaning xalq ongi va madaniy merosdagi aks sadosi aniqlanib, ilmiy asoslab berildi.

XX asr boshidan to mustaqillikkacha bo‘lgan davr o‘zbek she‘riyatida vatan mavzusining badiiy talqini qiyosiy asosda o‘rganildi. Turli tarixiy bosqichlar (jadidchilik davri, sovet davri) poetikasidagi farqlar, ifoda shakllari va g‘oyaviy xususiyatlari aniqlanib, bu holat adabiy jarayon uzviylikining muhim jihati sifatida tahlil qilindi.

Milliy va madaniy merosni badiiy talqinlar orqali ifodalashda vatan mavzusining tutgan o‘rni aniqlanib, milliy adabiyotning xalq ongini shakllantirishdagi ta‘siri nazariy jihatdan asoslandi. Bu orqali vatan konseptining faqat mavzu emas, balki adabiy-estetik mezon sifatidagi o‘rni ko‘rsatildi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

vatan obrazi badiiy konsept sifatida yangi o‘zbek she‘riyatining turli bosqichlaridagi badiiy, falsafiy va ma‘naviy talqinlari orqali tahlil qilingan, mavzuning davr ruhiyatiga mos o‘zgarishlari aniqlangan;

shoirlar ijodida vatan obrazining milliy va umuminsoniy mazmunini ifodalashdagi o‘ziga xosliklari qiyosiy tahlil qilingan;

o‘zbek she‘riyatida vatan mavzusining kognitiv asoslari – xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zlikni anglash va davr kishilari ruhiyati bilan bog‘liq jarayonlar poetik tasvirda qanday aks etganligi ko‘rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, qo‘llanilgan usullar va ilgari surilgan fikr hamda qarashlarning tasniflanishi, qiyosiy-tarixiy, biografik, kognitologik, sotsiologik tahlil metodlari asosida isbotlanganligi, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi hamda nazariy xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishonchli ilmiy-nazariy manbalarga, jumladan, o‘zbek adabiyoti va adabiyotshunoslik tadqiqotlariga tayangan holda vatan obrazini milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtiruvchi badiiy konsept sifatida tahlil etadi. Ishning ilmiy ahamiyati jadidlarning “Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini”<sup>16</sup> yoritishda namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari nazariy muammolarni hal etish,

---

<sup>16</sup> Prezident Sh.Mirziyoyevning Toshkentda 2023-yil 11-12 dekabr kunlari “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqloq va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi ilmiy konferensiyada so‘zlagan nutqidan. // URL: <https://president.uz/uz/lists/view/6919>

ta'lim jarayoni, adabiyotshunoslik metodikasi va vatanparvarlik tarbiyasida amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy xulosa, tavsiya hamda ishlanmalar asosida:

yangi o'zbek she'riyatida "vatan" konseptining shakllanishi va taraqqiyoti, konseptning faollashuvi omillari adabiy-estetik va tarixiy-kontekstual nuqtai nazardan ilmiy asoslanganligi, shuningdek, jadid adabiyotida shakllangan "vatan" konsepsiyasining taraqqiyot, hurriyat va milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqligi yangicha talqin asosida yoritilganligi haqidagi xulosalardan Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutida 2022-yilda bajarilgan AL-322103020 raqamli "Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari hayoti va ijodi bo'yicha web sayt va platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika institutining 2024-yil 23-apreldagi 39-son ma'lumotnomasi).

vatan mavzusining xalq tarixiy xotirasi, milliy o'zlik va madaniy yuksalishdagi o'rni, shuningdek, milliy adabiyotning xalq ongini shakllantirishdagi ta'siri borasidagi nazariy xulosalardan Andijon viloyat teleradiokompaniyasining eshittirishlarida, xususan, "Xazinamsan kitob" nomli adabiy, ilmiy-ma'rifiy ko'rsatuvida foydalanilgan (Andijon viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 19-iyundagi 01-13/23-son ma'lumotnomasi).

yangi o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyatida vatan tushunchasi shakllanishi va faollashuvining tarixiy, diniy, falsafiy va ijtimoiy omillari yoritilganligi haqidagi materiallardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarga mo'ljallangan OT-Φ1-030 raqamli "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 19-dekabrda 01-4205-son ma'lumotnomasi).

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 7 ta xalqaro va 9 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish nashr etilgan. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika hamda 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 159 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik

darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Yangi o'zbek she'riyatida “vatan” konseptining yangilanishi va faollashuvi omillari”** deb nomlangan birinchi bobi ikki faslni o'z ichiga oladi. Birinchi fasl **“Jadid adabiyotida yangi “vatan” badiiy konseptining shakllanishi”** deb nomlanadi. Ushbu faslda “vatan” konseptining an'anaviy va yangi talqini o'rtasidagi farqlar, konsept mazmunidagi o'zgarishlar davrning ijtimoiy-tarixiy-siyosiy-madaniy kontekstida yoritiladi. XX asr boshida jadidchilik harakati milliy o'zlikni anglash bilan birga, xalqning millat sifatida shakllanishiga ham katta e'tibor qaratdi. Natijada jadid matbuoti va adabiyotida “millat” va “vatan” tushunchalari faollashib, ularning mazmun-mohiyatini belgilashga intilish kuchaydi. Shu tariqa, bu tushunchalarni milliy matbuot, adabiyot va ta'lim orqali ommaga singdirish dolzarb vazifaga aylandi.

Jadidlarning mafkuraviy kurashlarida vatan konsepti milliyatchilik g'oyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, taraqqiyot va istiqloqlilik yo'lida “millat” va “vatan” tushunchalaridan tizimli ravishda foydalanildi. Vatan taraqqiyoti va istiqloqligiga ma'rifat orqali erishish masalasi asosiy shart sifatida ilgari surildi. Xalqni uyg'otish va ma'rifatli millatga aylantirish jadidlar faoliyatining markaziy yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, milliy matbuotning rivojlanishi va ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi bu maqsadga erishishda muhim rol o'ynadi.

Behbudiy “musulmon millati” tushunchasini 15-20 million kishilik bir toifa sifatida tasvirlaydi<sup>17</sup>. An'anaviy talqinda bu barcha musulmonlarni qamrab olsa, jadidlar uni Turkiston xalqlarining milliy uyg'onishi bilan bog'laydi. Cho'lponning “Kecha va kunduz” romanida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida “millat” tushunchasining diniy talqin qilinishi yoritiladi<sup>18</sup>. V.V. Bartold ham Turkistonda milliy ong zaifligini ta'kidlaydi<sup>19</sup>. Jadid darsliklarida “millat” diniy mazmunda tushuntirilib<sup>20</sup>, turli qavmlar “musulmon jamoalari” sifatida tasvirlanadi<sup>21</sup>.

Shunday qilib, XX asr boshlariga qadar xalq tafakkurida “millat” tushunchasi an'anaviy diniy mazmunda talqin qilinib, asosan “ummat” tushunchasiga tenglashtirilgan. Behbudiy esa “musulmon millati” tushunchasini an'anaviy diniy birlik doirasidan chiqarib, uni geografik va etnik jihatdan chegaralaydi<sup>22</sup>.

Turkiylik g'oyasi an'anaviy “millat” konseptining etniklashtirilishida muhim rol o'ynadi. Bunga rus ma'murlarining mahalliy aholini “sart” deb atashiga qarshi ziyolilarning e'tirozlari misol bo'la oladi. Turkiston matbuotida bu atama bo'yicha

<sup>17</sup> Бехбудий, Махмудхўжа. Танланган асарлар. Ж.1. – Тошкент: “Академнашр”, 2021 й. – Б.273.

<sup>18</sup> Cho'lpon. Kecha va Kunduz. Roman. Birinchi kitob. – Toshkent: “Sharq”. 2013. – B.234.

<sup>19</sup> Бартольд В.В. Сарты (Сочинения, т. 2). М., 1964. стр. 528-529.

<sup>20</sup> Тошкандий, Абдулқодир. Таълими соний. Дарслик. – Тошкент, 1910 й. / ЎЗР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Шарқ кўлёмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв. №747. Б.31.

<sup>21</sup> Мулла Рустамбек ибн Юсуфбек хожи. Таълими аввал. Дарслик / Тошкент: “Фулум Ҳасан Орифджанов литографияси”. 1913 й. / ЎЗР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Шарқ кўлёмалари хазинаси, асосий фонд, тошбосма. Инв. №419. Б.33.

<sup>22</sup> Бехбудий, Махмудхўжа. Танланган асарлар. Ж.1. – Тошкент: “Академнашр”, 2021 й. – Б.274.

bahslar boshlangan bo‘lib, “Bizlar sartmi, turkmi?” maqolasi<sup>23</sup> muhokamani ochib berdi.

Bahs davomida “sart” so‘zining kelib chiqishi<sup>24</sup>, tarixiy manbalardagi nufuzi<sup>25</sup>, qo‘llanishi<sup>26</sup> hamda 92 qabila-urug‘ ichida uchramasligi ta’kidlandi<sup>27</sup>. Bu munozaralar Turkiston ziyolilarining “millat” tushunchasini etnik jihatdan chuqur tahlil qilganidan dalolat beradi.

Turkiston ziyolilari millat konseptini an’anaviy tushunchadan farqli ravishda etnik asosda talqin qila boshladilar. Bu jarayon turkiy xalqlar orasida til birligi g‘oyasi kuchayishi, maorif va matbuotning yagona tilda bo‘lishi zarurati bilan bog‘liq edi<sup>28</sup>. Ismoil Gasprinskiy “Tilda, fikrda va ishda birlik” shiori ostida turkiy xalqlarning umumiy tilga ega bo‘lishini ilgari surdi<sup>29</sup>.

Bu intilish Rusiya mustamlakalarida keng tarqalib, millatlar o‘zligini anglashiga, tarix va tilga e’tibor kuchayishiga turtki bo‘ldi. Natijada matbuot va adabiyotda “millat” va “vatan” tushunchalari zamon talabiga mos ravishda yangicha mazmun kasb etdi.

Matbuotda millat va dinni sevish<sup>30</sup>, ularni ona tiliga muhabbat orqali asrash lozimligi ta’kidlandi<sup>31</sup>. Tilni yo‘qotish millat va dinni yo‘qotish xavfini tug‘dirishi, ta’limning ona tilida olib borilishi zarurati uqtirildi<sup>32</sup>. 1914-yilda musulmon maktablarida til masalasida “turk-totor” nomi qabul qilindi<sup>33</sup>.

Jadidlar ta’limni ona tilida olib borish masalasini ilgari surgunlariga qadar arab tili ustuvor edi. Muzaffarzoda<sup>34</sup>, Muharram<sup>35</sup> va Avloniyning<sup>36</sup> maqolalarida til hayot-mamot masalasi ekani, xalq o‘z o‘tmishini ona tili orqali anglay olishi qayd etildi. XIX asr oxiridan boshlab turkiy xalqlar tarixini o‘rganish kuchaydi. Gasprinskiy Turkiston tarixi va ijtimoiy jarayonlarini kuzatib<sup>37</sup>, umumturkiy tarix yaratish g‘oyasini ilgari surdi<sup>38</sup>.

Jadidlar milliy davlatchilik sari intilib, “millat” va “vatan” tushunchalarini yangilash zaruratini angladilar. Ilgari diniy birlikni ifodalagan “millat” XX asr boshida etnik mazmun kasb eta boshladi. Islomda “millat” va “vatan” uzviy bog‘lanmagani bois, jadidlar Yevropa milliy davlatchilik konsepsiyasidan ilhomlandilar, bu esa Turkistonda mustaqillik g‘oyalarining shakllanishiga turtki

<sup>23</sup> Давлатшоев Б. Муросала ва мубоҳара // Шўро. – 1911. – №16.

<sup>24</sup> Бехбудий, Махмудхўжа. “Сарт” сўзи мажхулдир // Шўро. 1911. – №19.

<sup>25</sup> Бақохўжа бин Саййидходихўжа. “Сарт” лафзи аслсиздир // Шўро. – 1911. – №24.

<sup>26</sup> Мулла Абдуллабек Мусабек ўғли. “Сарт” сўзи маълумдур // Садои Фарғона. 15.06.1914. №30.

<sup>27</sup> Бехбудий, Махмудхўжа. “Сарт” сўзи мажхулдир // Ойина. 1914. №22-26.

<sup>28</sup> Таржимон. 12.12.1883. №19; Адабиёти сарття // Таржимон. 1900. №48; Туркестанская ведомосты. 1900. №98.

<sup>29</sup> Тил, тил, тил // Таржимон. 9.12.1905. №103.

<sup>30</sup> Музаффарзода, Айн . Дин миллат, миллат миллият ила қоимдир (1) // Садои Туркистон. 26.11.1914. №49.

<sup>31</sup> Зоҳирий, Ашурали. Она тили // Садои Фарғона. 14.04.1914. №3.

<sup>32</sup> Музаффарзода, А.Рауф . Тил ҳам дин // Садои Туркистон. 04.07.1914. №24.

<sup>33</sup> Тил масаласи (эълон) // Садои Туркистон. 04.07.1914. №24.

<sup>34</sup> Музаффарзода, А.Рауф . Маданият нардибони // Садои Туркистон. 1914. №33 ва №37.

<sup>35</sup> Муҳаррам (Намангоний). Тил масаласи // Садои Туркистон. 20.03.1915. №64.

<sup>36</sup> Авлоний, Абдулла. Ҳифзи лисон // Садои Туркистон. 28.05.1914. №13.

<sup>37</sup> Исмоил. Тарихи жадидаи Туркистон (туркум мақолалар) // Таржимон. 1905-1906-йиллардаги турли сонлар; Муқоламаи салотин (ҳикоя) // Таржимон. 1906-1907-йиллардаги турли сонлар.

<sup>38</sup> Исмоил. Тарихи туркий // Таржимон. 1906. №145.

bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, Turkiston mustaqilligi yo‘lidagi shiorlar va istiqloqlilik g‘oyalarning shakllanishiga turtki bo‘ldi<sup>39</sup>.

Avloniy “vatan” tushunchasini tug‘ilgan yurt bilan bog‘lab, uni etnik va hududiy birlik sifatida talqin qiladi. U “Arabiston – arablar yeri”, “Turkiston – turkistonliklar vatani” tamoyilini ilgari surib, milliylik asosida vatanparvarlikni targ‘ib etadi<sup>40</sup>. Jadidlar “vatan”ni “millat” bilan bog‘lab, uni milliy o‘zlikni anglash vositasiga aylantirdilar<sup>41</sup>. “Vatan” so‘zini turk o‘g‘illariga turk tilida anglatish maqsadi e‘lon qilindi<sup>42</sup>. Matbuotda Vatan to‘g‘risidagi tushuntirishlar, targ‘ibotlar kuchaydi, “din” va “Vatan” bevosita “zamon” bilan bog‘liq holda tushuntirildi<sup>43</sup>. Vatan tushunchasi keng targ‘ib etilib, unga ehtirom milliy burch sifatida ta‘kidlandi. “Vatan”, “Turon”, “Turkiston” so‘zlari duo kabi tilga olinib, Vatan sevgisi ma‘shuq ishqiga qiyos qilindi<sup>44</sup>.

Jadidlar Vatan tushunchasini e‘tiqod darajasiga ko‘tarib, jamiyatga singdirdilar va bu adabiyotda Vatan konseptining yangilanishiga zamin yaratdi. Ijtimoiy islohot va istiqloq orzusi natijasida Vatan adib va shoirlarning ijodiy ehtiyojiga aylandi. Endi u “millat yashaydigan hudud” sifatida anglanib, “milliy vatan” tushunchasi shakllandi va she‘riyatda mustahkam o‘rin egalladi.

Bobning ikkinchi fasli **“Jadid she‘riyatida “millat” va “vatan” badiiy konseptlari ifodasi”** deb nomlanib, unda jadid she‘riyatida “millat” va “vatan” konseptlari, ularning an‘anaviy va yangi talqindagi mazmuni, ular o‘rtasidagi nozik farqlar, konseptlarning o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi jihatlari haqidagi tahlillarga to‘xtalib o‘tilgan.

XX asr boshidagi ijtimoiy o‘zgarishlar yangi avlod adabiy jarayoniga ta‘sir ko‘rsatib, milliy tafakkurning rivojiga xizmat qildi. Jadid matbuoti va adabiyotida “millat” va “vatan” tushunchalarining faollashuvi, ularning mazmunini aniqlashtirishga intilish kuchaygan bo‘lib, bu jarayon adabiy va publitsistik asarlarda ham aks etdi. Shu bois jadid adabiyotida turli davrlarda “millat” va “vatan” konseptlarining xilma-xil talqinlarini kuzatish mumkin.

Fitrat “Munozara” asarida “Buxoroning najib millati” atamasini ishlatib, uni “aziz vatandoshlarim” deb ulug‘laydi<sup>45</sup>. U “millat”ni diniy birlik sifatida, “vatan”ni esa Buxoro hududi doirasida talqin qiladi. “Sayha” to‘plamidagi<sup>46</sup> she‘rida Buxoroni “aziz Ona”ga qiyoslab, ilm va sharaf timsoli sifatida madh etadi<sup>47</sup>.

---

<sup>39</sup> Қўқонбоев А. Фарғонада совет ҳокимиятини ўрнатиш ва мустаҳкамлаш учун кураш. – Тошкент: Ўздавнашр, 1968. – Б.22; Аъзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: Миллий демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б.151.

<sup>40</sup> Авлоний, Абдулла. Танланган асарлар: 2 жилдлик. 2-нашри. 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари (Истиқлол хотиралари). – Тошкент: “Маънавият”. 2006. – Б.56.

<sup>41</sup> Калинин, Ал-Асқар. Муаллим ус-соний. Дарслик. – Тошкент: 1908. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Шарқ қўлёзмалари хазиnasi, асосий фонд, тошбосма. Инв. №358. Б.90.

<sup>42</sup> Убайдуллох. Мақсад ва маслак // Садоий Туркистон. 04.04.1914. №1.

<sup>43</sup> Муфтийзода, Абдурахмон. Дин, ватан, замон // Хуррият. 16.12.1917. №59.

<sup>44</sup> Ўша манба.

<sup>45</sup> Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар // Шеърлар, насрий асарлар, драмалар (5 жилдлик). Жилд 1. – Тошкент: “Маънавият”. 2000. – Б.46.

<sup>46</sup> Ушбу тўплам 1911-йилда Туркиянинг Истанбул шаҳрида нашр этилган. Ундан форс тилида ёзилган ватанпарварлик руҳидаги шеърлар жой олган.

<sup>47</sup> Айний С. Намунаи адабиёти тоҷик. Нашриёти “Адиб”. Душанбе. 2010. – Б.355.

1911-yilda Buxoroni vatan deb ulugʻlagan Fitrat, 1917-yilga kelib, Turonni vatan sifatida<sup>48</sup> madh etishga oʻtadi<sup>49</sup>. Dastlab hududiy tushunchaga ega boʻlgan “vatan” keyinchalik etnik mazmunga ega boʻlib, turklik bilan bogʻlanadi. Uning sheʼrlarida Turon muqaddas Ona timsolida tasvirlanib, uning yoʻlida jon fido qilish sharaf sifatida talqin etiladi. “Hind ixtilolchilari”dagi qahramon obrazi<sup>50</sup> ham Fitrat tafakkuridagi oʻzgarishning ifodasidir.

Hamzaning “Koʻzni oching, qardoshlar” sheʼrida<sup>51</sup> “millat” diniy birlik sifatida talqin etilib, “dindoshlar” milliy xizmatga daʼvat etiladi. Shoir firqachilikni tark etib, yagona millat boʻlishga chorlaydi. “Darmon istariz” sheʼrida “millat” va “vatan” konseptlari bogʻlanib, “musulmonlar” atamasi Turkiston aholisi bilan chambarchas qoʻllaniladi. Shoir millatni taraqqiyotga undasa-da, anʼanaviy yondashuv saqlanib, “musulmon millati” va “gʻayrilar” qarama-qarshiligi aks ettiriladi. “Yaxshi holin yoʻqotgan oqibatsiz Turkiston” sheʼrida<sup>52</sup> “millat” va “vatan” tushunchalari boyib, Turkiston vatan sifatida tasvirlanadi. “Vatan” faqat hudud emas, balki oʻtmish va ajdodlar oldidagi javobgarlikni ham anglatadi. Shoir milliy ozodlik va taraqqiyotni sogʻinib, xalqni ogohlik va harakatga chaqiradi.

Choʻlpon “Turkistonli qardoshlarimizga” sheʼrida<sup>53</sup> hali milliy ongga ega boʻlmagan xalqni tasvirlaydi. “Bizni xalq” atamasi Turkiston aholisini anglatib, “Turkistonli qardoshlar” iborasi orqali millat tushunchasining etnik va hududiy bogʻliqligi koʻrsatiladi. Biroq millatni soʻkkanlar izzatlanib, uni targʻib etganlar “dahriy” sanaladi, shoir esa xalqning millatga aylanishini orzu qiladi.

Birinchi jahon urushi yillarida<sup>54</sup> Behbudiy Turkiston musulmonlarini vatanparvarlikka chorlab, Rusiyani yagona vatan sifatida eʼtirof etadi<sup>55</sup>. U urushga daxldorlikni moliyaviy yordam orqali namoyon etish lozimligini taʼkidlab, gʻayrimusulmonlarga yordam berishni madaniy burch deb biladi<sup>56</sup>. Behbudiy fikricha, sadoqat Turkiston musulmonlariga diniy va milliy masalalarda soʻz yuritish imkonini yaratadi. Bu qarashlarida “Vatan” – Rusiya mamlakati sifatida talqin etiladi<sup>57</sup>.

Hamzaning “Podsho hazratlarini duo”<sup>58</sup> va “Sidqi dil birla duo”<sup>59</sup> sheʼrlari Birinchi jahon urushi davridagi bosim yoki murosaning ifodasi boʻlib, “vatan” Rus imperiyasi, “millat” esa uning xalqlari sifatida talqin etiladi.

Jadidlar “millat” va “vatan” konseptlarini milliy istiqlol yoʻlida yangilash zaruratini his etganlar. Sidqiy “Vatan nadir” sheʼrida<sup>60</sup> Vatanni inson tugʻilgan, yashagan, mehnat qilgan muqaddas maskan sifatida tasvirlab, unga begʻaraz

<sup>48</sup> Фитрат. Юрт кайғуси // Хуррият. 28.07.1917. №26. Б.2.

<sup>49</sup> Фитрат. Юрт кайғуси (бир ўзбек йигитининг тилиндан) // Хуррият. 18.08.1917. №31. Б.2-3.

<sup>50</sup> Аҳмад Шукурый. Турк адабиётида идёлизм ва реализм // Кўмак (Берлин). 1.09.1923. №1. Б.10-11. Яна қаранг: Ирзаев, Баҳром. Ўзбек ёшлари ва хорижий таълим. – Тошкент: “Академнашр”, 2018. – Б.190.

<sup>51</sup> Ниёзий, Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: “Фан”, 1988 й. – Б.11.

<sup>52</sup> Ўша манба. – Б.13.

<sup>53</sup> Туркistonли қардошларимизга // Садои Туркiston. 18.04.1914. №3.

<sup>54</sup> Убайдулла. Ватан муҳофазаси // Садои Туркiston. 2.09.1914. №38. Б.1.

<sup>55</sup> Маҳмудхўжа. Ватанпарварлик керак // Ойина. 16.08.1914. №43. Б.2.

<sup>56</sup> Маҳмудхўжа. Ионат керак, кўнгулли аскар керак // Ойина. 23.08.1914. №44.

<sup>57</sup> Бехбудий, Маҳмудхўжа. Шарқ оқшоми”ндаги нутқ // Ойина. 02.04.1915. №11.

<sup>58</sup> Ниёзий, Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: “Фан”. 1988 й. – Б.22.

<sup>59</sup> Ўша манба. Б.66.

<sup>60</sup> Ўша асар. Б.79.

muhabbat uyg‘otishga intiladi. Hamzaning “Jonlarni jononi Vatan” she‘rida<sup>61</sup> esa Vatan ona maqomidagi muqaddas maskan sifatida talqin etiladi. Shoir avval uni anglamaganini “ko‘rlik” deb atab, bilimsizlik tufayli Vatan dushmanlarga sotilganidan afsus chekadi va ulamolarni uni tanitishga mas‘ul deb biladi.

Jadidlar harakati dastlab ma‘rifiy bo‘lsa-da, 1917-yilgi Fevral inqilobidan so‘ng siyosiy haqlarni talab qilish darajasiga yetdi. Bu jarayonda “millat” va “vatan” tushunchalari aniq siyosiy va mafkuraviy ma‘no kasb etdi.

1917-yil 26–29-noyabr kunlari Qo‘qondagi IV Turkiston umummusulmon syezida “Turkiston muxtoriyati” e‘lon qilindi. Fitrat bu sanani “milliy laylatulqadrimiz” deb atab<sup>62</sup>, uning xalq imonini yuksaltiruvchi kuch ekanini ta‘kidladi. Cho‘lpon esa “Ozod turk bayrami” she‘rida muxtoriyatni turkiy olam va mazlum Sharq uchun uyg‘otuvchi mayoq sifatida madh etdi<sup>63</sup>. She‘rda “Turkiston” va “vatan” tushunchalari kontekstual sinonim o‘laroq qo‘llaniladi, “millat” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq tarzda ifodalanadi.

Turkiston muxtoriyatining e‘lon qilinishi jadidchilik g‘oyalarining amaliy isboti bo‘lib, xalqni birlikka va Vatan himoyasiga undadi. XX asr boshlarida o‘zbek jadid adabiyotida “millat” va “vatan” konseptlari yangicha idrok etilib, zamon talabi asosida qayta talqin qilindi. Bu jarayon islomiy an‘analar, mustamlaka sharoiti va jadidchilik g‘oyalari ta‘sirida kechdi.

Jadidlar taraqqiyot va turkiylik g‘oyalarini milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida ilgari surib, “millat”ni turkiylik doirasida etniklashtirdi hamda uni yashash hududi bilan bog‘lab, yangi mazmun yukladi. “Vatan” esa millat va uning hududi bilan uzviy bog‘liq tushuncha sifatida shakllandi. Bu yangicha qarashlar matbuot va adabiyotda aks etdi.

Ikkinchi bob **“20-50 yillar o‘zbek she‘riyatida vatan mavzusining badiiy talqinlari”** deb atalib, ikki faslni tashkil etadi. **“20-30-yillar o‘zbek she‘riyatida “vatan” badiiy konsepti va unda “sotsialistik vatan” tushunchasining o‘rni”** deb nomlanuvchi birinchi faslida 20-yillar o‘zbek she‘riyatining ilk davrida Turkiston zulmat o‘chog‘iga aylangan vatan sifatida tasvirlanishi, she‘rlarda vatan timsoli hurlik, birlik va adolat chaqirig‘i asosida gavdalantirilgani borasidagi tahlil va talqinlar bayon qilinadi, ammo keyinchalik milliyatchilik g‘oyalari bilan bog‘liq “vatan” tushunchasining adabiyotlarda yoritilishiga sovet mafkurasi tazyiqi ostida taqiq qo‘yila boshlagani, Sovet hukumatining siyosati doirasida “turklik jarayoni” inqirozga yuz tutgani kabi omillar sabab “vatan” konsepti yana mazmuniy o‘zgarishlarga uchrangani, sovet mafkurasi targ‘iboti ta‘sirida internatsionalizm g‘oyasi ilgari surilib, “vatan” ko‘p millatli turli xalqlarning “umumiy uyi” va “yagona vatani” sifatida e‘tirof etilishi bilan bog‘liq tahlillar bayon qilinadi. Shuningdek, millat konseptini ifodalagan “turk” atamasi o‘rniga “o‘zbek” etnonimi qo‘llanila boshlagani, Sirdaryo va Amudaryo oralig‘idagi Turkistonning o‘troq turkiy aholisi “o‘zbek” eli sifatida tasavvur qilinib, bu yangi etnonim bilan bog‘liq

<sup>61</sup> Ниёзий, Ҳамза Ҳакимзода. Тўла асарлар тўплами. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: “Фан”, 1988 й. – Б.45.

<sup>62</sup> Фитрат. Мухторият // Хуррият. 5.12.1917. №57. Б.1-2.

<sup>63</sup> Чўлпон. Озод турк байрами // Эл байроғи. 16.12.1917. №13.

jarayon keng tus olgani, she'riyatda mazkur "millat" va "vatan" konseptlari mazmuniy o'zgarishlarining aks etishi omillari batafsil yoritib beriladi.

Sovet hukumatining ma'muriy-hududiy chegaralash siyosati O'rta Osiyo xalqlarining yashash tarzi va etnik xususiyatlari kabi turli ijtimoiy-madaniy farqlarini *milliy ong ta'sirida* hududiy lashtirdi. 20-yillar o'zbek adabiyotida, xususan, she'riyatida vatan ma'nosini beruvchi "Turon", "Turkiston" atamallari o'rnida millat sifatida o'zini anglab borayotgan "o'zbek" eli uchun tasavvurdagi hududiy subyekt – vatan o'laroq "O'zbekiston" (1924-yilda milliy hududiy chegaralanish asosida tashkil topgan respublika nomi) atamasi qo'llanila boshlandi. Natijada she'riyatda katta vatan sifatida SSSR (Sovet Ittifoqi, butun Rossiya), kichik vatan sifatida esa O'zbekiston madh etila boshlandi.

Oybekning "O'zbek eli" she'rida<sup>64</sup> o'zbeklarning o'tmishi va yorug' kelajagi tasvirlanadi. Shoir Movarounnahrning qadimiy aholisini "o'zbek eli" deb ataydi. Sovet davrida milliy-hududiy chegaralash jarayoni shakllanayotgan milliy ong asosida hududiylikni belgiladi. Bu jarayon tasavvurdagi "o'zbek" millati uchun "vatan"ni yaratdi va jadidlarning milliy uyg'onish orzularini ro'yobga chiqardi. Xullas, milliy chegaralanish jarayoni ongda yetilgan ehtiyojning natijasi edi.

She'rda "yurt" so'zi Vatan va millat ma'nolarini mujassamlashtirib, moddiy makon va etnik birlikni anglatadi. Bunda "O'zbekiston" nazarda tutilayotgani aniq. She'r 1925-yil bahorida yozilgani shunday deyishga asos beradi. Chunki 1924-yil so'ngida milliy-hududiy chegaralanish asosida Turkiston beshga bo'linib, O'zbekiston SSR tashkil topgan edi. Ya'ni Oybek "vatan" deganida shu respublikani, "o'zbek eli" deganida esa uning xalqini nazarda tutadi. To'g'ri, hozirda milliy chegaralanishga ko'proq salbiy munosabat ustivor, bunda sovet hukumatining "bo'lib tashlab, hukmronlik qil" siyosati ko'riladi. Holbuki, u ma'lum ma'noda jadid taraqqiyparvarlari loyihasining natijasi ham edi<sup>65</sup>. Boshqa tomondan, O'rta Osiyoda amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanishni etnik guruhlarining qaysidir ma'noda "mustaqil yashash huquqi" sifatida qabul qilish ham mumkin. Chig'atoychilik harakatining "o'zbek" millati shakllanishiga zamin yaratganligi jihatidan qaralsa, mazkur chegaralanish O'rta Osiyoda madaniy o'zlikning fundamental asosi bo'lmish millat g'oyasi g'alaba qozondi degani edi. Bu o'zbek ziyolilari uchun quvonchli voqea bo'ldi<sup>66</sup>.

Oybek "O'zbek eli" she'rida erk quyoshi ostida yangi hayot sari intilayotgan xalqni tasvirlaydi. 1925-yilda yozilgan she'rda "go'zal yurt – bir g'uncha gul" timsoli hali yosh O'zbekistonni ifodalaydi. Shoir optimistik ruhda yurtni "erk

---

<sup>64</sup> Ойбек. Ўзбек эли // Тонг юлдузи. №1 (Март 1925). Б.2; Мазкур шеър 1926 йили "Туйғулар" шеъррий тўпламида эълон қилинган. Яна қаранг: Ойбек, Мусо Тошмухаммад ўғли. Мукаммал асарлар тўплами: Шеърлар 1922-1935. 19 томлик. Т.1. – Тошкент: "Фан", 1975. – Б.52.

<sup>65</sup> Холид, Адиб. О'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: "Akademnashr", 2022. – B.268.

<sup>66</sup> Миллий чегараланиш, аввало, совет ўзбек зиёлиларининг қувончи бўлганини урғулаган Адиб Холид замонавий Ўзбекистон миллий зиёлилар (жадидлар) совет шароитида амалга оширган ва ушбу шароитлардан таъсирланган инқилобдан олдинги миллий лойиҳа бўлганлигини ҳам таъкидлайди. Бу ҳақида қаранг: Холид, Адиб. О'zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: "Akademnashr", 2022. – B.257-290 (VIII bob).

bog‘iga” hid sochishga, kelajakka umid bilan boqishga chorlaydi. 20-yillarning o‘rtalaridan boshlab she‘riyatda Vatan obrazi tobora kuchayib boradi.

Jumladan, Oybekning “O‘zbekiston uchun” she‘rida<sup>67</sup> ham yangi hayot tarannumi yaqqol o‘z ifodasini topgan. She‘rda “O‘zbekiston” aniq ma‘muriy-hududiy birlik sifatidagi “vatan” ma‘nosini, ya‘ni yangilanish yo‘liga kirgan, kelajakdagi aniq maqsadlariga shiddat-la intilayotgan Sovet O‘zbekistonini anglatadi. Shuni ta‘kidlash kerakki, 20-yillarda maydonga kirgan adabiy avlod vakillari: Oybek, G‘afur G‘ulom, G‘ayratiy, Hamid Olimjon singari shoirlar ijodida “vatan” deganda aynan mana shu hudud – O‘zbekiston nazarda tutiladi. Ya‘ni jadid ijodkorlaridagi kabi ular qarshisida “vatan nima?” degan savol turmagan. Shuning uchun ham Oybek bir yoshli (“O‘zbek eli”), G‘.G‘ulom sakkiz yoshli (“Obro‘ uchun”), Cho‘lpon o‘n yoshli (“Diyorim”), Hamid Olimjon o‘n besh yoshli (“O‘zbekiston”) Sovet O‘zbekistoni haqida yozadilar. Bu hol mazkur avlod shakllangan davr muhiti bilan, ularga sho‘ro mafkurasining ta‘siri bilan izohlanadi.

20-yillar boshidan internatsionalizm g‘oyasi ilgari surilib, “millat” sinfiylik doirasida anglanishi, hududiy “vatan” esa ko‘p millatli kishilik jamoasi – xalqning “umumiy uyi”, “yagona vatani” sifatida e‘tirof etilishi asnosida “millat” haqidagi hamda “vatan”ni anglashdagi *milliy hudud* bilan bog‘liq qarashlar ham o‘zgarayotgani ko‘rindi. Afsuski, “internatsionalizm” tushunchasining sinfiylik, siyosat va hukmron mafkura doirasida talqin etilgani undagi umuminsoniy mohiyatning soxtalashishiga olib kelgani 30-yillar ijtimoiy hayotida yaqqol kuzatildi.

Bu davr o‘zbek she‘riyatida lirik qahramon tilidan yangi yondashuv asosidagi “yangi vatan” tasvirining guvohi bo‘lamiz. Cho‘lponning “Yangi men” she‘ri misolida buni kuzatish mumkin. Shoir she‘r nomini “Yangi men” deb nomlashidayoq ijtimoiy hayotdagi tub o‘zgarishlar hamda uning inson ijtimoiy psixologiyasiga, tafakkuriga naqadar ta‘sir etgani ko‘rinadi. Bu o‘rinda shoirning “yangi men”i (lirik qahramoni) qayg‘ularning yo‘qligidan baxtiyor va endi u “o‘lik ruhli kechalardan” aslo sir kutmaydi. Shoirning “yangi vatani”da xalq quvnab-quvnab mo‘jizalar yaratadi, chunki bunda mehnat ozod bo‘lgan, shu sabab har kun “kuylar bilan tong otadi”, bunda *ishlaganning baxti quchog‘ida*, ya‘ni “ishlagan – tishlaydi”. Ko‘rib turganimizdek, Cho‘lpon “sotsialistik vatan” madhiga qalam surmoqda. “Bizning vatan” she‘rida ham mana shu ruh ustuvor, shoir quvonch bilan shu vatanda yashayotganidan faxrlanadi. Dunyoda har bir yurt dan keng va kattakon, deya tasvirlanayotgan, undan shoir she‘rlarida “yangi vatan” deya faxr tuyayotgan vatan “SSSR” ekanligi anglashiladi. Xuddi shu kabi ta‘rifni Hamid Olimjonning “Vatan” she‘rida<sup>68</sup> *“Dunyoda menikiday / Katta va zo‘r Vatan yo‘q”* misralaridagi o‘xshashlikda ham ko‘ramizki, bu o‘rinda ham “Vatan” deganda butun “Sovet Ittifoqi” – yangi ma‘muriy-hududiy birlik nazarda tutiladi. Ya‘ni

---

<sup>67</sup> Oйбек. Ўзбекистон учун (Ўзбекистоннинг уч йиллигига бағишлаб) // Қизил Ўзбекистон. 13.12.1927. №284. Б.3. Яна қаранг: Ойбек. Мукамал асарлар тўплами. Шеърлар (1922-1935). Ўн тўққиз томлик. 1-том. – Тошкент: “Фан”. 1975. – Б.116-117.

<sup>68</sup> Хамид Олимжон. Танланган асарлар: Шеърлар. Нашрга тайёрловчи Сарвар Азимов. Тошкент: “ЎзССР давлат нашриёти”. 1951. – Б.215.

jadid she'riyatida Rusiya imperiyasi umumiy vatan o'laroq talqin qilingan bo'lsa, endi uning o'rnini "Sovet Ittifoqi" egalladi. Shu bilan birga, Rossiyaning har ne ulug'ligini e'tirof etgan holda ham ittifoq tarkibidagi bir o'lka sifatida tushunish ham qaror topdi ("Rossiya". H.Olimjon).

30-yillarda, ayniqsa, xalq xo'jaligida erishilgan ulkan yutuqlar eyforiyasi ta'sirida SSSR o'zining vatani ekanligidan, shu buyuk yaratuvchilik ishlariga daxldorlikdan faxrlanish tuyg'usi ustuvorlik qildi. Jumladan, Hamid Olimjonning "Ont" she'ri<sup>69</sup> ham shunday faxrlanish aks etgan, 1-may bayrami munosabati bilan uyushtirilgan tantanada yangragan ont shaklidagi she'rdir.

20-yillardan boshlab olib borilgan sovet mafkurasi tashviqoti 30-yillarga kelib ommada yangicha dunyoqarashni shakllantirib ulgurdi. Bunga xalq xo'jaligidagi yutuqlar bilan bir qatorda ulkan qurilishlar, maishiy turmushdagi ijobiy o'zgarishlar ham o'z hissasini qo'shdi, albatta. Hatto Cho'lpondek milliy istiqlol kuychisining Sovet Ittifoqini Vatan o'laroq madh etib, undan faxr tuyishi, g'ururlanishi kichkina narsa emas.

Xullas, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, mafkura ta'siri va milliy xotiradagi mustamlaka iztiroblari 20–30-yillar o'zbek she'riyatida "vatan" va "millat" mavzularining o'ziga xos tarzda anglanishiga olib keldi. Natijada, masalan, ijtimoiy va badiiy tafakkurda "katta Vatan" va "kichik Vatan" tushunchalari shakllandi. Aytish kerakki, "kichik Vatan" tushunchasi ma'lum ma'noda "katta Vatan" madhi bilan yo'g'rilgan she'rlarga aks ta'sir o'laroq maydonga chiqdi.

Ikkinchi fasl **"Urush davri sharoitining "vatan" badiiy konseptiga ta'siri"** masalasiga bag'ishlanadi.

"Vatan" tushunchasi urush yillarida she'riyatning markaziy mavzusiga aylandi va Vatan o'ta sadoqat hamda himoyaga loyiq muqaddas borliq sifatida tasvirlandi. She'rlarda Vatan uchun kurashishning adolatliligi va axloqiy talabi, uni muqaddas burch darajasiga ko'tarishga e'tibor qaratildi. Vatan himoyasi mavzusidagi she'rlar orqali insonlarga or-nomus, muqaddas burch tuyg'ulari singdirildi. Vatan uchun kurash sadoqat va adolat harakati sifatida tasvirlanib, shaxsiy va jamoaviy harakatlarni yuqori axloqiy me'yorga moslashtirdi. Bu kabi tasvirlar himoya harakatini axloqiy va ma'naviy jihatdan oqlash (va ma'nan qondirish shakli) darajasiga ko'tardi. Bu ayniqsa, quyidagi misralarda yaqqol aks etadi:

*Vatan! – deb borilsa harb ketmas xato.*

*Vatan! – deb urilsa zarb ketmas xato.*

*Vatan! – deb chopilsa tig' ketmas g'alat.*

*Vatan! – deb otilsa o'q o'tmas g'alat...*

*Uring, qasos oling sadoqat uchun,*

*Uring, haqiqat va adolat uchun.*

*Qilich choping, aziz o'lkamiz haqqi,*

*Shirin o'g'il haqqi, jajji qiz haqqi.*

Vatan nafaqat hududiy yaxlitlik, balki insonning asosiy huquqlarini ham o'zida mujassamlashtirgani ta'kidlandi. Natijada Vatan himoyasi bu huquqlarni

---

<sup>69</sup> Хамид Олимжон. Онт // Қизил Ўзбекистон. 1.05.1935.

himoya qilish bilan tenglashtirilib, vatan uchun jang qilish harakatini ozodlik va adolatni himoya qilish bilan muvofiqlashtirdi.

Urush davri she'riyatida "vatan" badiiy konsepti bir qator mazmuniy o'zgarishlarga uchradi. Vatanni himoya qilish barobarida she'riyatda "vatan" konsepti "Vatan – Ona", Vatanni himoya qilish, ya'ni Onaning himoyasi *burch* ekanligi urg'ulandi va Vatan bilan bog'liq barcha ta'riflar oliy burchga qaratildi. Vatan inson uchun qadrdon va sevikli yor sifatida ham ifoda etildi. Bu vatan bilan bevosita hissiy bog'liqlikni aks ettirib, unga nafaqat burch, balki sevgi bilan xizmat qilish g'oyasini ham ilgari suradi.

Hamid Olimjonning "Yigitlarni frontga jo'natish" she'rida<sup>70</sup> Ona va Vatan tushunchalari ona obrazida umumlashtiriladi. Ushbu she'rda ona obrazi fidoyilik, matonat, vatanparvarlik burchining kuchli timsoli bo'lib xizmat qiladi. "Vatan – Ona" degan qarash va yondashuvni biz dastavval Fitrat ijodida kuzatgan edik (1-bob). Unda ikkinchi jahon urushi davridagi vaziyatdan farqli o'laroq, Vatan himoyasi uchun kurash payti emas, balki Vatan (Turkiston) taqdiri hal bo'ladigan davr edi.

Ona va Vatan o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, vatanparvarlik tuyg'usida ham namoyon bo'ladi. O'z vatanini sevmagan odam onasini sevishga ham to'liq qodir emas, degan qarashlar mavjudki, shu nuqtai nazardan qaralsa, Vatan va Ona bir-birini to'ldiruvchi, inson uchun ruhiy hamda axloqiy tayanch bo'lib xizmat qiluvchi tushunchalar ekanligi ayon bo'ladi.

Hamid Olimjonning urush mavzusidagi ko'plab she'rlarida ona obrazi o'z milliy-psixologik kechinmalari bilan tasvirlangan. Xususan, "Jangchi Tursun" balladasida ham yuqoridagi band mazmuniga hamohang misralarga duch kelamiz.

Ikkinchi jahon urushi davrida yozilgan Uyg'unning "Vatan haqida qo'shiq" she'ri xalqning Vatanni sevish, uni muqaddas ona sifatida ulug'lash va uni himoya qilish uchun jasorat ko'rsatishga chorlovchi asar sifatida e'tiborga loyiqdir. She'rda Vatan konsepti muqaddas ona sifatida aks ettiriladi. She'rning dastlabki bandida ona-Vatan xalq uchun naqadar aziz va e'zozli ekanligi ifodalanadi:

*Vatan – ona so'zi naqadar laziz!  
Sensan har narsadan mo'tabar, aziz,  
Hurmatini saqlar har bir o'g'il, qiz.  
Muqaddas mo'tabar ulug' Vatanim,  
Sharaflar, shonlarga to'lug' Vatanim,  
O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan.*

"Vatan – Ona" konsepti she'rda yuksak badiiy ifoda etilgan. Ilk misralardanoq shoir Vatanni onaga qiyoslab, uni inson uchun eng aziz va muqaddas tushuncha sifatida tasvirlarkan, Ona timsolida Vatan Ona bilan bog'liq hissiyotni o'zida mujassamlashtiradi. She'rda vatan shunchaki yer yoki hudud emas, balki sevgi, sadoqat va himoya manbai sifatida tasvirlangan. Bandning so'ngida takrorlanuvchi "O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan" misrasi yana bir bor Vatanga bo'lgan cheksiz sadoqat va fidoyilikni anglatadi.

---

<sup>70</sup> Хамид Олимжон. Танланган асарлар. Тошкент, "ЎЗДАВНАШП", 1944. – Б.225.

Bu davrda yaratilgan boshqa ko‘plab she‘rlar qatori Oybekning “Ona so‘zi” she‘ri<sup>71</sup>, Hamid Olimjonning “Ona va o‘g‘il”, “Bo‘l omon”<sup>72</sup> kabi she‘rlarida urush yillaridagi ona obrazlari gavdalantirilgan.

Bu davr she‘riyatida vatanparvarlik shunchaki mavhum tuyg‘u hisoblanmay, balki xalqning qat‘iyati va intilishlarining harakatlantiruvchi kuchi sifatida tasvirlandi. Shuningdek, *Vatan* yovuz kuchlar hujumi ostidagi *poklik va ezgulik maskani* sifatida e‘tirof etildi. Dushman ham “insoniyat dushmani”, ham “Vatan dushmani” sifatida ko‘rilgan muhitda Vatan himoyasi asosiy insoniy qadriyatlarni himoya qilish bilan bog‘landi. Bu ikki tomonlama yondashuv Vatanni himoya qilishning ma‘naviy ta‘sirini (omilini) kuchaytirdi, bunda nafaqat hududni, balki umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilish o‘rtaga chiqdi.

Mazkur ikkinchi faslda urush yillari kontekstidagi *Vatan* tushunchasining turli badiiy ifodalari talqinlari, shuningdek, 50-yillarning o‘rtalariga qadar she‘riyatda qanday mazmun ifoda etgani masalasi yoritib beriladi.

Uchinchi bob **“60-80-yillar o‘zbek she‘riyatida “vatan” badiiy konsepti”** deb nomlanadi. Uning birinchi qismida **“50-yillar oxiri va 60-yillar o‘zbek she‘riyatida “vatan” badiiy konseptining mazmuniy o‘zgarishlari”**ga e‘tibor qaratiladi.

50-yillar oxiridagi ijod namunalarida “vatan” badiiy konsepti inson mehnati, fidoyiligi va qoni orqali “yer”ni muqaddaslashtirish g‘oyasi bilan izohlandi (E.Vohidov, “Ona tuproq”). Tuproq shunchaki tabiiy element (modda) emas, balki insonning halol mehnati, fidoyiligi va qoni bilan ulug‘lanadigan ruhiy (hissiy) va ma‘naviy qadriyat sifatida tasvirlandi. Urush davri she‘riyatida ona vatanning muqaddasligi, asosan, himoya, burch va jang maydonida jon fido qilish kontekstida ulug‘langan bo‘lsa, keyingi davr she‘riyatida urush ko‘rinishlari chetlab o‘tilib, falsafiy yondashuv orqali tuproq muqaddasligi inson mehnati va fidoyiligi bilan izohlandi. Muqaddaslik tushunchasi faqat qon yoki urushdagi kurash bilan emas, balki halol ter, mehnat va hayotning tinch yo‘llaridagi sa‘y-harakatlar bilan mazmunan bog‘landi.

50-yillar oxiri va 60-yillar o‘zbek she‘riyatida vatan mavzusiga yondashuv sifat jihatdan o‘zgardi. Bu davrda shoirlar vatanni ma‘naviy, falsafiy va hissiy jihatdan boyitishga intildilar. Stalin davri qatag‘onlari tugab, jamiyatda nisbiy erkinlik paydo bo‘lgach, badiiy ijod falsafiy chuqur yondashuvga ega bo‘ldi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi shoirlar vatanni insonning ichki kechinmalari bilan bog‘lashga harakat qildilar.

60-yillarda yozilgan she‘rlarda ham vatan umumiy ma‘noda (keng ma‘noda: yer, koinot, zamin; tor ma‘noda: tug‘ilgan joy, uy, hovli), geografik hudud sifatida keng (“katta vatan”) va tor (“kichik vatan”) ma‘nolarda ifodalanishi davom etdi. Xususan, Vatan Erkin Vohidovning “O‘lka” (1960) she‘rida umumiy ma‘noda (yashash hududi), “Vatan” (1962) she‘rida ham umumiy ma‘noda (tor: hovli – “bir parcha yer”; keng: zamin – “kurrai olam”), geografik hudud sifatida keng ma‘noda

<sup>71</sup> Ойбек. Оловли йиллар. Шеърлар. — Тошкент: “Тошкент” бадий адабиёт нашриёти, 1965. — Б.8.

<sup>72</sup> Хамид Олимжон. Танланган асарлар: Шеърлар. Нашрга тайёрловчи Сарвар Азимов. Тошкент: “ЎзССР давлат нашриёти”. 1951. — Б.233-234.

(SSSR), Uygʻunning “Doʻstlik qoʻshigʻi” sheʻrida keng (SSSR) va tor (Respublikalar) maʼnolarda, “Goʻzal may” va “Tong oʻlkasi, bahor oʻlkasi” sheʻrlarida keng maʼnoda (Sovet Ittifoqi) ifoda etiladi.

60-yillarda “katta vatan” – Sovet Ittifoqi tushunchasi, 50-yillardagi idealistik talqinlarga nisbatan, sheʻriyatda oʻz oʻrnini biroz yoʻqotdi. Bu davrda xalq va yozuvchilar orasida milliy qadriyatlar, madaniyat va urf-odatlar boʻlgan eʼtibor ortib, “kichik vatan” – Oʻzbekistonga boʻlgan qiziqish kuchaydi. Bu tendensiya shoirlarning ijodida SSSRga nisbatan koʻproq milliy muammolarni yoritishga oʻtganliklarida namoyon boʻldi. “Katta vatan”ning taʼsiri global birlik va tinchlik kabi umumiy mavzular doirasida saqlanib qoldi, biroq u “kichik vatan” tasvirida ikkinchi planga tushdi.

Shu oʻrinda yondashuvlardagi asosiy farqlarni jadval misolida quyidagicha koʻrishimiz mumkin:

<b>Davr</b>	<b>Vatan tasviri</b>	<b>Asosiy xususiyatlar</b>
<b>20-30-yillar</b>	Sovet mafkurasi bilan uygʻunlashgan holda idealistik va sotsialistik tasvir	Proletar kurash, kollektivizm, katta Vatan (SSSR) ramzi
<b>Urush davri</b>	Himoya qilinishi lozim boʻlgan ona vatan va milliy qadriyatlar ramzi	Fidoyilik, xalqni birlashtirish, kurash va vatanparvarlik
<b>50-60-yillar</b>	Tuproqning muqaddasligi insonning maʼnaviy va falsafiy tushunchalari bilan bogʻlangan	Inson (xalq) va vatan birligi, ichki hissiyotlar va falsafiy mushohada

Davr sheʻriyatida Vatan muhabbati xalq muhabbatiga asoslanib izohlandi. Vatanga boʻlgan mehr va muhabbatning eng chuqur negizi xalq ekanligi eʼtirof etila boshlandi. Sheʻriyatda vatan bilan birga xalqqa “ona” sifatida murojaat yuzaga keldi. Bu qarash vatanga boʻlgan muhabbatni xalqning mehnati, fidoyiligi va tarixiy oʻrni bilan bogʻladi. Bu davr sheʻriyatida boshqalaridan farqli oʻlaroq “vatan” konsepti xalq maʼnosi bilan birlashib, yagona va uzviy tushunchaga aylandi. Shu sababli, “ona vatan” iborasining oʻrniga “ona xalq” atamasining ishlatila boshladi (Abdulla Oripov, “Men nechun sevaman Oʻzbekistonni”<sup>73</sup>, “Yuzma-yuz”<sup>74</sup>, “Oʻzbekiston”<sup>75</sup> sheʻrlari). “Ona xalq” – bu milliy oʻzlik, tarbiya va maʼnaviy qadriyatlarning asosi, u insonning ruhiy, madaniy va jamiyatga oid ijtimoiy shakllanishida muhim rol oʻynaydi. Bu konsept xalqning mehr-muhabbati hamda muhofazalovchi va tarbiya beruvchi xususiyatini oʻzida mujassamlashtiradi. Abdulla Oripov “ona xalq” atamasi orqali vatanni metaforik “ona” obrazidan chiqarib, “xalq”ni Vatan tushunchasining markaziga qoʻyadi. Shoir bu bilan xalqning yaratish, himoya qilish va uzviy davomiylikdagi rolini ulugʻlaydi.

<sup>73</sup> Орипов, Абдулла. Ўйлар армони: Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.222-226.

<sup>74</sup> Ўша манба. Б.75-82.

<sup>75</sup> Ўша манба. Б.222.

An'anaviy "ona vatan" iborasidan "ona xalq" yondashuviga o'tish xalq va Vatan tushunchasining uyg'un birligi, millat va davlatning birdamligi haqida yangi bir qarashni aks ettiradi.

She'riyatda "vatan" va "millat" konseptlari bir-birini to'ldiruvchi va mustahkamlovchi ma'noda talqin qilindi. Bu yondashuv vatanga bo'lgan mehrni nafaqat geografik yoki tarixiy manzilgoh sifatida, balki xalqning mavjudligi va o'zligini saqlab qolishi bilan bog'liq qadriyat sifatida ko'rsatadi.

**"70-80-yillar o'zbek she'riyatida "vatan" badiiy konsepti xususiyatlari"** deb nomlangan ikkinchi qismda o'zbek she'riyati Sovet Ittifoqi mafkuraviy ta'siri ostida shakllangan bo'lsa-da, vatan mavzusining falsafiy, hissiy va ramziy talqinlar bilan boyitilgani tahlil qilinadi. Ushbu davr shoirlari milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiralarni jonlantirish va vatanparvarlik tuyg'ularini yangi badiiy shakllarda ifodalashga alohida e'tibor qaratganlari misollar yordamida ochib beriladi.

70-yillar she'riyatida boshqalardan farqli o'laroq "vatan" ko'p qatlamli va ramziy ma'no kasb etib, insonning ma'naviy dunyosida chuqur iz qoldiradigan g'oya sifatida ham gavdalanadi. Buni she'riyatda o'ziga xos uslubga ega shoir Rauf Parfi ijodida kuzatamiz. "Vatan haqida Bernd Iyensshga maktubim" (1973) she'rida<sup>76</sup> shoir Vatan tushunchasini chuqur falsafiy va zamonaviy talqinda ifoda etib, uni an'anaviy yuksak pafosdan uzoqlashtiradi hamda murakkab ijtimoiy va ma'naviy masalalar bilan bog'laydi.

70-80-yillar she'riyatida Vatan inson ruhiyati, tarixiy meros va milliy birlikning uyg'unlashgan timsoli sifatida tasvirlandi. U nafaqat geografik hudud, balki shaxsiy hissiyotlar va milliy birlikning umumlashgan badiiy obraziga aylandi. Bu yondashuv nafaqat Vatan haqidagi tasavvurlarni boyitdi, balki milliy ruh va o'zlikni saqlashda muhim o'rin egalladi.

Abdulla Oripovning "Meni olib keting" (1981) she'ri<sup>77</sup> inson va Vatan o'rtasidagi chuqur ma'naviy bog'liqlikni yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. She'r boshdan-oxirgacha shoirning musofirlik dardini ifoda etadi. Shoir she'rdagi "vatan" so'zi o'rnida "diyor" so'zini ishlatadi. Bu tushuncha faqat geografik makon bo'lib qolmay, insonning tug'ilgan joyi bilan bo'lgan shaxsiy va tarixiy aloqasini ham ifodalaydi. Shoir O'zbekistonni o'zining nafaqat yurti, balki qismati sifatida ko'radi.

80-yillar she'riyatida "Vatan" badiiy konsepti milliy o'zlik, shaxsiy ozodlik va tarixiy merosga e'tiborning kuchayishi orqali ham boyidi. She'rlarda Vatan nafaqat muhabbat va fidoyilik obyekti, balki siyosiy va ijtimoiy tanqid markazi sifatida ham namoyon bo'ldi. Bu davr ijodkorlari orqali Vatan g'oyasi yangi mafkuraviy mazmunga ega bo'lib, istiqlool sari intilishlar uchun badiiy zamin yaratildi.

Vatan bu davr she'riyatida nafaqat o'tmish va hozirgi zamon bilan bog'liq, balki milliy kelajakning timsoli sifatida tasvirlaniga guvoh bo'lamiz. Shoirlar Vatanni asrashni kelajak avlodlar uchun muhim burch sifatida ko'rsatdilar.

---

<sup>76</sup> Рауф Парфи. Кўзлар. Шеърлар. – Тошкент: "Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти", 1978 й. – Б.10-13.

<sup>77</sup> Орипов, Абдулла. Йиллар армони: Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – Б.443.

80-yillarning oxirgi davridagi ziddiyatli siyosiy muhit she'riyatda Vatan konseptini yanada boyitdi va yangicha yondashuvning paydo bo'lishiga ham zamin yaratdi. Sovet Ittifoqining markazlashgan mafkurasiga nisbatan o'zbek she'riyatida tanqidiy munosabat paydo bo'ldi.

Erkin Vohidovning "Vatan istagi" (1990) she'rida<sup>78</sup> vatan mavzusi xalqning istiqloq va erkinlikka bo'lgan intilishi, ma'rifat va insoniy qadriyatlarning ustuvorligi orzusi orqali chuqur ma'no kasb etadi. She'rda shoir Vatan tushunchasini hurriyat, ma'rifat va adolat bilan bog'lab, orzu-umidlarini ijtimoiy g'oyalari orqali badiiy shaklda ifodalaydi.

She'rning boshlanishida Vatan tushunchasi ozodlik bilan bog'lanadi:

*Bu vatanda bir Vatan,  
Qurmoqni istaydir ko'ngil,  
O'zni ozod qush kabi  
Ko'rmoqni istaydir ko'ngil.*

Misralarda shoir Vatanni ozod qush kabi erkin ko'rish orzusini ifodalaydi. Ozodlik Vatanning asosiy timsoli sifatida tasvirlanadi, bu esa xalqning mustaqillikka intilishi bilan uyg'un. E'tibor qilinsa, shoir she'rda "*bu vatanda bir Vatan qurmoq*"ni istashida ikki tur vatan haqida gapirayotgani ayon bo'ladi, bu o'rinda bosh harflar bilan yozilgan "Vatan"ga alohida ma'no yuklanadi. Kichik harf bilan yozilgan "vatan" – SSSRni, katta harf bilan yozilgan "Vatan" esa shoir orzusidagi "mustaqil O'zbekiston"ni ifodalayotgani ayon bo'ladi.

SSSR mafkurasidan kelib chiqqan holda kichik harf bilan yozilgan *vatan* tushunchasi Sovet Ittifoqining umumiy makoni, ya'ni "katta Vatan" sifatida talqin etilgan. Bu tushuncha o'zbek xalqining milliy o'zligidan ko'ra umumiy sotsialistik dunyoqarashga xizmat qilgan. Qolaversa, Sovet Ittifoqi umumiy yurt sifatida qabul qilingan. Masalan, "o'zbek xalqining Vatani SSSR" degan qarashlar tarqalgan. Mazkur mafkuraning asosi sotsialistik internatsionalizm bo'lib, unda milliy chegaralarni ikkinchi darajali qilib ko'rsatishga urinishlar. Shunga ko'ra she'rda vatan tushunchasi shaxsiy tuyg'ulardan ko'ra mafkuraviy manfaatlarini aks ettirgan. Biroq bosh harf bilan yozilgan *Vatan* tushunchasi esa milliy davlatchilik, shaxsiy erkinlik va mustaqillik ramzi sifatida she'rda yangi mazmun kasb etadi. Unda quyidagi ma'naviy va madaniy xususiyatlar muhim o'rin tutadi: a) *milliy o'zlik va g'urur*: *Vatan* o'zbek xalqi tarixiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarining markazi sifatida tasvirlanadi. Masalan, yozuvchi va shoirlar tomonidan Vatan ona, muqaddas zamin, mehr va sadoqat ramzi sifatida tasvirlangan; b) *mustaqillik ramzi*: shoir idealidagi Mustaqil O'zbekiston uchun *Vatan* tushunchasi ozodlik va erkinlik g'oyalari bilan bog'lanadi. Bu yerda shaxsiy hissiyotlar va fidoyilik tushunchalari alohida ahamiyatga ega; c) *shaxsiy va ijtimoiy uyg'unlik*: Vatan nafaqat davlatchilik, balki har bir shaxsning u bilan bo'lgan ma'naviy bog'lanishini ham ifodalaydi.

She'r kontekstida "soxta vatan" va shoir idealidagi "haqiqiy Vatan" o'zaro bir-biriga zid qo'yiladi. She'rda "yolg'on vatan" tushunchasi mazmunijihatdan xalqning haqiqiy ozodlik va mustaqillik tuyg'ularidan uzoq bo'lgan, soxta

<sup>78</sup> Вохидов Эркин. Яхшидир аччиқ ҳақиқат. Янги шеърлар. – Тошкент: "Нур". 1992 й. – Б.6-7.

mafkuraviy asosga qurilgan tushunchani ifoda etadi. Shuningdek, “yolgʻon vatan” orqali toʻgʻridan-toʻgʻri sovet davridagi soxta “vatanparvarlik” tushunchasi ham tanqid qilinadi. Sovet Ittifoqi davridagi mafkuraviy targʻibot xalqlarning milliy oʻzligini bosib, ularni bir umumiy “sovet vatani”ga qaratishga uringan. Bu oʻrinda mafkuraning oʻzak nuqtalari sifatida xalqlar birligi shiori ostida milliy oʻziga xosliklarni yoʻqotishga qaratilgan harakatlar, “vatan” deb atalayotgan Sovet Ittifoqi koʻp millatli xalqlar uchun emas, balki markazlashgan, totalitar tizimga xizmat qiluvchi soxta mafkuraviy tuzilma sifatida ish yuritganligi, “Sovet vatani” erkinlik, insof va adolat kabi qadriyatlarni amalga oshirishda muvaffaqiyatsiz odim olganligini aytish mumkin.

Shuningdek, “yolgʻon vatan” shaxsiy his-tuygʻularga tayangan “haqiqiy Vatan” gʻoyasi oʻrnini bosolmagan, yolgʻonchi ideologiyalarga xizmat qilgan ramz sifatida ham talqin etiladi. Sheʼrda haqiqiy Vatan “insof”, “mehr”, “maʼrifat”, “hurriyat” bilan bogʻliq boʻlsa, “yolgʻon vatan” bu tuygʻularni suisteʼmol qiladigan va soxta erkinlikni taklif etadigan tizimdir. Jumladan, shoir shaxs va davlat oʻrtasidagi ziddiyatni ham koʻrsatadi, chunki davlat mafkurasi xalqni aldashga qaratilgan, deb hisobaydi shoir.

Sheʼr yozilgan davrda Sovet Ittifoqining zaiflashuvi va xalqlarda milliy istiqlol gʻoyalarining shakllanishi kechayotgan edi. Shu nuqtai nazardan, “yolgʻon vatan” Sovet davridagi soxta davlatchilik modelining yaqinda oʻtmishga aylanishiga ham ishora qilgan. Shoir bu ibora orqali yangi istiqlol Vatani haqiqiy qadriyatlar asosiga qurish zaruratini ham uqtiradi. Erkin Vohidovning “yolgʻon vatan” tushunchasi soxta mafkuraviy tuzilmalarni rad etish va haqiqiy, insofli, milliy qadriyatlarga asoslangan Vatanni qidirishga chaqiruvdir. Bu tushuncha orqali shoir milliy ong uygʻonishi, shaxsiy va ijtimoiy masʼuliyat hissini kuchaytirishga urinadi. “Yolgʻon vatan” va “haqiqiy Vatan” oʻrtasidagi farqni anglash orqali u xalqni yangi istiqlol Vatani barpo qilishga daʼvat qiladi.

Koʻrinadiki, 80-yillar oxirida davrning milliy mustaqillik harakatlari va ijtimoiy ongdagi oʻzgarishlar bilan chambarchas bogʻliq holda “mustaqil Oʻzbekiston” ifodasi boʻlmish “ideal Vatan” tushunchasi shakllandi. Insof, mehr-muhabbat va adolat Vatanning bayrogʻi va sarhadi sifatida tasvirlanadi. Vatan faqat mafkuraviy yoki siyosiy tushuncha sifatida emas, balki insoniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy tuzilma sifatida ham qaraldi.

## XULOSALAR

1. Milliy uygʻonish davrida “vatan” va “millat” tushunchalari yangi mazmun kasb etib, ular anʼanaviy diniy talqinlardan zamonaviy milliy konsepsiyalarga aylandi. Islom anʼanasida “vatan” koʻpincha “yashash joyi” yoki “maskan” sifatida qaralgan boʻlsa, jadidlar bu tushunchani Yevropada shakllangan milliy ong va mustaqillik gʻoyalari asosida boyitdilar. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Gʻarb taraqqiyoti va kapitalistik munosabatlar taʼsiri bilan “vatan” nafaqat hududiy birlik, balki xalqning milliy oʻzligi va taraqqiyotga undovchi mafkuraviy qadriyat sifatida talqin qilina boshlandi.

2. Jadidlar “vatan”ni millatning yagona hududi, tarixi, tili va kelajagi tushunchalarini umumlashtiruvchi ramz sifatida e’tirof etdilar. Ushbu yondashuv Turkiston ziyolilari orasida keng tarqalib, “Turkiston” obrazi orqali xalqning tarixiy, madaniy va etnik birlik g‘oyalari aks ettirildi. “Vatan” endi nafaqat geografik joy, balki milliy mas’uliyat va kelajak avlod uchun javobgarlik ramzi sifatida qaraldi. She’riyatda esa “Turkiston” – ona vatan obrazi orqali xalqning vatan oldidagi mas’uliyati va uni himoya qilish zarurati o‘laroq tasvirlandi.

3. Bu davrda “millat” tushunchasi diniy talqin va ummat birligi mazmunidan chiqib, etnik va til birligiga asoslangan holda yangilandi. Turkiston ziyolilari turkiylik g‘oyasini ilgari surib, “millat”ni ijtimoiy mas’uliyat va ma’rifatga undovchi kuch sifatida talqin etdilar. Bu jarayonda til millatni birlashtiruvchi asosiy omil sifatida ko‘rildi. “Sart” atamasiga bo‘lgan e’tirozlar mahalliy ziyolilar, umuman, xalq tafakkurida milliy o‘zlikni anglash kuchayganidan dalolat berdi.

4. Davr she’riyatida tarixiy turkiy davlatlar qudrati, xalqning o‘zligini aks ettiruvchi fakt va obrazlar orqali “vatan” konsepti mazmunan boyidi. Zamonaviy milliy ong shakllandi. Xalqni mustaqillik va taraqqiyot yo‘liga undashda “vatan” va “millat” konseptlari birlashtiruvchi kuch, g‘oya va vositaga aylandi.

5. 20-yillar o‘zbek she’riyatida “vatan” tushunchasi milliy, ijtimoiy va mafkuraviy o‘zgarishlar fonida rivojlandi. Ilk she’rlarda zulmatga cho‘kkan Vatan – Turkiston qalamga olindi, u hurriyat, birlik va adolat ramzi sifatida tasvirlangan. Ammo sovet mafkurasi bosimi ostida bu davrga xos bo‘lgan millatchilik g‘oyalari ta’qiqqa uchradi. Sovet hukumati “turkchilik” g‘oyalarini chekladi, “o‘zbekchilik” g‘oyalari faollashdi va ma’muriy-hududiy chegaralash siyosati orqali O‘rta Osiyo xalqlari alohida milliy hududiy birliklarga ega bo‘ldi. Bu jarayonda she’riyatda “Turon” va “Turkiston” kabi tarixiy atamalar o‘rnida “O‘zbekiston” milliy vatan ramzi sifatida paydo bo‘ldi.

6. Sovet mafkurasi doirasida internatsionalizm g‘oyasi ilgari surildi. 20-30-yillar she’riyatida “vatan” ko‘p millatli SSSRning “umumiy uyi” sifatida talqin qilindi. Shuningdek, “katta vatan” (SSSR) va “kichik vatan” (O‘zbekiston) birgalikda madh etildi. Ayniqsa, yangi qurilayotgan jamiyat va baxtli kelajakni aks ettiruvchi g‘urur va faxr hissi she’riyatning yetakchi pafosiga aylandi.

7. Ikkinchi jahon urushi yillarida Vatan va uning himoyasi she’riyatning asosiy mavzusiga aylandi. Vatan uchun kurash adolat va insoniy burch darajasida ulug‘landi. Vatan o‘zida nafaqat hududiy yaxlitlikni, balki insonning asosiy huquqlarini ham mujassamlashtirgan muqaddas borliq sifatida talqin qilindi. She’riyatda vatan yovuz kuchlar hujumi ostidagi poklik va ezgulik maskani o‘laroq tasvirlanib, uni himoya qilish umuminsoniy tamoyillarni himoya qilish bilan birlashtirildi. Dushman nafaqat Vatan, balki insoniyat dushmani sifatida talqin qilindi. Shu tariqa Vatan himoyasi milliy qadriyatlarni, erkinlik va adolatni himoya qilish harakati sifatida ko‘rsatildi.

8. 50-yillar oxiri va 60-yillarda milliy madaniyatlarga nisbatan sovet mafkurasining nisbatan yumshoq munosabati shoirlarga o‘z milliy rang-barangligini aks ettirish imkonini berdi. Natijada she’riyatda “katta vatan” – Sovet

Ittifoqi tasvirining ahamiyati pasayib, “kichik vatan” – O‘zbekistonga e’tibor ortdi. Bu xalq va ijodkorlar orasida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosni yuksaltirishga bo‘lgan qiziqishning o‘sishi bilan bog‘liq edi. Shoirlar ijodida O‘zbekiston milliy iftixor manbai sifatida kuylanib, “kichik vatan” milliy ruh va ma’naviyatning asosiy ramziga aylandi.

9. Shoirlar ijodida ikki tushuncha uyg‘unlashgan holda ham tasvirlandi. Sovet mafkurasi katta vatan (SSSR)ni tinchlik va birlik timsoli sifatida ulug‘lasada, kichik vatan (O‘zbekiston)ni milliy-geografik hamda ma’naviy mazmun bilan boyitishga e’tibor qaratildi. Biroq bu uyg‘unlik ko‘pincha mafkuraviy nazorat doirasida cheklangan edi. Masalan, G‘afur G‘ulom ijodida milliy masalalar sovet ideologiyasi bilan uyg‘unlashtirilib, nozik tarzda ifodalandi.

10. Urush davri she’riyatida Vatan himoyasi qon va kurash bilan ulug‘langan bo‘lsa, 60-yillar she’riyatida bu tushuncha halol mehnat va fidoyilik bilan bog‘landi. Tuproq inson mehnati va fidoyiligi orqali ma’naviy va ruhiy qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Shoirlar Vatanni tinch hayotning samarali mehnatlari orqali yuksak ma’naviyat va qadriyatlar maskani sifatida talqin qildilar.

11. 60-yillar she’riyatida Vatanni qayta anglash jarayoni kuzatildi. Vatan sevgisi xalq sevgisi bilan bog‘landi. Vatanni sevish uchun uning tabiiy sharoitlari emas, balki xalqning fidoyiligi, tarixi va ma’naviy kuchi asos sifatida ko‘rsatildi. Vatan tushunchasi “ona xalq” konsepti orqali boyitilib, xalqning qadr-qimmatini anglash Vatanga muhabbatning asosiy tushunchasiga aylandi.

12. 70-80-yillar she’riyatida Vatan inson ruhiyati, tarixiy meros va milliy birlikning uyg‘unlashgan timsoli sifatida tasvirlandi. U nafaqat geografik hudud, balki shaxsiy hissiyotlar va milliy birlikning umumlashgan badiiy obraziga aylandi. Bu yondashuv nafaqat Vatan haqidagi tasavvurlarni boyitdi, balki milliy ruh va o‘zlikni saqlashda muhim o‘rin egalladi.

13. 80-yillar oxirida Vatan mustaqillik va milliy o‘zlikning ideal timsoli sifatida talqin qilindi. Shoirlar kelajak avlodlar uchun Vatanni asrashni muqaddas burch sifatida ulug‘ladilar. Vatan faqat siyosiy-mafkuraviy tushuncha sifatida emas, balki insoniy qadriyatlarga asoslangan ijtimoiy tuzilma sifatida yuksaltirildi. Mustaqil O‘zbekiston haqidagi orzular she’riyatda “ideal Vatan” konsepti o‘laroq gavdalandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ НАУЧНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.07 ПРИ АНДИЖАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ХУДАЙБЕРДИЕВ АКРАМ АКБАРОВИЧ**

**ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ТЕМЫ РОДИНЫ В НОВОЙ  
УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ**

**10.00.02 – Узбекская литература**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Андижан – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2021.3.PhD/Fil1964.**

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета ([www.adu.uz](http://www.adu.uz)) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Курунов Дилмурод Хайдаралиевич</b> доктор филологических наук, профессор
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Эрназарова Гульноза Хамраевна</b> доктор филологических наук, профессор <b>Тожибоева Дильфузахон Эркиновна</b> доктор филологических наук, доцент
<b>Ведущая организация:</b>	Кокандский государственный университет

Защита диссертации состоится «\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_\_ часов на заседании Научного совета по присуждению научных степеней № DSc.03/05.05.2023.Fil.60.07 при Андижанском государственном университете. (Адрес: 170100, Республика Узбекистан, город Андижан, улица Университетская, дом № 129. Телефон/факс: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu\_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирована за № \_\_\_\_). (Адрес: 170100, город Андижан, улица Университетская, дом № 129. Телефон: 0 (374) 223 88 14).

Автореферат диссертации разослан «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.

(протокол реестра рассылки № \_\_\_\_\_ от «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2025 года.)

**Б.М.Рахмонов**  
Председатель Научного совета по присуждению научных степеней, доктор филологических наук, профессор

**Н.Н.Азизов**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению научных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам

**С.К.Курбонов**  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению научных степеней, доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Тема родины, будучи одной из ведущих тем любой национальной литературы, отражает в себе историческую судьбу народа, национальное самосознание и культурные ценности. В мировой литературе эта тема служила одним из главных факторов в самосознании народов и формировании их национального мировоззрения.

В мировой литературе трактовка темы Родины осуществлялась в соответствии с историческим, политическим и культурным прогрессом каждого народа. Например, в древнегреческой и римской литературе “родина” означала общественно-политическое единство города (полиса). В эпосах *"Илиада"* и *"Одиссея"* ведущей была трактовка свободы Родины, связанная с семейными ценностями. В эпосе Вергилия *"Энеида"* преобладает идея строительства отечества. В эпоху романтизма - в творчестве таких литераторов, как Шекспир, Байрон, Гете - отразились индивидуальные чувства, связанные с любовью к Родине. В них “родина” предстает как концепт, определяющий личную свободу, культурное единство и нравственные устои человека.

В литературе тюркских народов понятие “родина” в исторических процессах приобрело особую художественную форму и содержание. В “Орхун-енисейских писаниях” Родина предстает как символ государственного управления, народного благосостояния и свободы. В частности, в писаниях Бильга-кагана содержатся образы, призывающие народ к сохранению “отчизны”.

К началу XX века в национальном общественном мышлении и являющемся его производной художественном мышлении обновилось понятие “родина”. Тема родины стала одним из основных средств отражения народной исторической памяти, национальных ценностей и культурного подъема; понятие “родина” воплотило в себе национальные и общечеловеческие ценности. Новая узбекская литература, особенно в поэзии, стала основным концептом национального возрождения родины. В этом аспекте исследование образа родины как художественного концепта, отражающего в себе национальный культурный процесс, исторические традиции и ценности, народ и его духовность, во-первых, ярко выражает особенности переломного периода в художественно-эстетическом мышлении; во-вторых, на примере поэзии освещает важные вехи в истории национальной общественной мысли; в-третьих, подчеркивает значимость в деле патриотического воспитания подрастающего поколения. научно-просветительское и социально-просветительское значение.

Более того, джадидская литература - явление, открывшее новую эру не только в узбекской национальной литературе, но и в развитии народной духовности и художественной мысли. В начале XX века усилился процесс обогащения национальной литературы и культуры джадидскими писателями по-новому, на основе впитывания прогрессивных идей современности. Это

приводило в движение новые художественные средства освещения темы, новые образы, связанные с образом родины, расширялись художественные возможности поэзии. В творчестве джадидов тема родины трактовалась иначе, чем традиция, в гармонии с прогрессом, свободой и национальными ценностями, а значит, с использованием символов, представляющих их. Тема диссертации актуальна и тем, что направлена на наблюдение художественного и идейно-содержательного развития образа в целом, что является чрезвычайно активным в литературе века.

Сегодня, благодаря реформам, проводимым в нашей стране, расширяется возможность по-новому интерпретировать богатое наследие джадидской литературы в научном и литературно-художественном плане. В произведениях джадидов тема родины воплощается как синтез традиционных и современных взглядов. “В настоящее время, когда наша страна вступает в новый, высокий этап своего развития, нам, как вода и воздух, нужны зрелые кадры, воспитанные в духе национальных ценностей, наряду с достижениями западной науки, такими как наши предки-джадиды”<sup>79</sup>. Поэтому сегодня одной из актуальных задач стало углубленное изучение творческого наследия представителей национальной литературы, связанного с темой родины, привитие в сознание подрастающего поколения национальной идеи и духовных ценностей, отраженных в произведениях.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-2789 “О мерах по дальнейшему совершенствованию организации, выполнения и финансирования деятельности Академии наук, научно-исследовательских работ” от 17 февраля 2017 года, ПП-2995 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы сохранения, исследования и пропаганды древних письменных источников” от 24 мая 2017 года, ПП-3271 “О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и пропаганде культуры чтения и читательства” от 13 сентября 2017 года, ПП-3652 “О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Союза писателей Узбекистана” от 5 апреля 2018 года, ПП-3775 “О дополнительных мерах по повышению качества образования в вузах и обеспечению их активного участия в проводимых в стране масштабных реформах” от 5 июня 2018 года, Указе Президента Республики Узбекистан УП-6097 “Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года” от 29 октября 2020 года, Указе УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы” от 28 января 2022 года и постановлениях, Постановлении ПП-300 “О мерах по качественной и своевременной реализации Стратегии “Узбекистан-2030” в 2023 году” от 11 сентября 2023 года, докладе на научной конференции на тему “Джадиды: идеи национального самосознания, независимости и

---

<sup>79</sup> Из выступления Президента Ш.Мирзиёева на расширенном заседании Республиканского кенгаша по духовности и просвещению 22 декабря 2023 года “Духовность должна стать новой силой, новым движением в нашей жизни”. Народное слово. 23 декабря 2023 года. № 274 (6617).

государственности”, проведенной в Ташкенте 11-12 декабря 2023 года, и другими нормативными правовыми актами, касающимися данной деятельности.

**Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. “Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации”.

**Степень изученности проблемы.** Тема родины, проблема понятия “родина” и связанные с ней идеи подробно исследованы в мировой, в частности, западной литературе. В частности, Адиб Халид провел важные исследования национального самосознания, джадидского движения, модернизации советского периода и эпохи независимости в Центральной Азии, и в его работах понятия “родина”, “нация” были глубоко проанализированы в историческом, культурном и политическом контексте Центральной Азии<sup>80</sup>. Также в исследованиях таких учёных, как E.Ollvort<sup>81</sup>, Kristofer Fort<sup>82</sup>, Сергей Абашин<sup>83</sup>, Hisao Komatsu<sup>84</sup>, M.Mobin Shorish<sup>85</sup>, высказывается мнение о понятиях “Родина” и “нация”, связанных с идеями тюркизма. Идеи любви к нации, понятия “родина” и “нация” были специально исследованы в различных аспектах в научных исследованиях нескольких зарубежных ученых<sup>86</sup>. В изысканиях ученых тюркского мира

---

<sup>80</sup> Xolid, Adib. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: “Akademnashr”, 2022. – 424 b. Khalid A. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca, N.Y.: Cornell University Press, 2015; Adeeb Khalid. “Pan-Islamism in Practice: The Rhetoric of Muslim Unity and Its Uses,” in Elisabeth Özdalga, ed., Late Ottoman Society: The Intellectual Legacy (London: Routledge Curzon, 2005), p. 217; Adeeb Khalid. “Society and Politics in Bukhara, 1868–1920,” Central Asian Survey 19 (2000), p. 383.

<sup>81</sup> Allworth E.A. The modern Uzbeks: from the fourteenth century to the present: a cultural history. Hoover Institution Press, Stanford University, California, 1990; Edward A. Allworth, The Preoccupations of Abdalrauf Fitrat, Bukharan Nonconformist: An Analysis and List of His Writings (Anor; 7) (Berlin: Des Arab. Buch, 2000), p. 12;

<sup>82</sup> Fort, Christopher. Reviewed work(s): Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Adeeb Khalid. Ithaca, NY: Cornell University Press, 2015. Pp. xxi + 415. Journal of Eurasian Studies 7 (2016) 221–222.

<sup>83</sup> Sergey Abashin. Ethnogenesis and Historiography: Historical Narratives for Central Asia in the 1940s and 1950s / An Empire of Others. Creating Ethnographic Knowledge in Imperial Russia and the USSR. Budapest – New York, Central European University Press, 2014, pp. 145–170.

<sup>84</sup> Hisao Komatsu. “The Evolution of Group Identity among Bukharan Intellectuals in 1911–1928: An Overview”, The Toyo Bunko, 1989, No: 47, p. 118; Hisao Komatsu. “Bukhara and Istanbul: A Consideration about the Background of the Munāzara,” in Stéphane A. Dudoignon and Hisao Komatsu, eds., Islam in Politics in Russia and Central Asia (Early Eighteenth to Late Twentieth Centuries) (London: Kegan Paul, 2001), pp. 169–170; Hisao Komatsu. 20. Yüzyıl başlarında Orta Asyada türkçülük ve devrim hareketleri (Ankara: Turhan kitabevi, 1993), pp. 8–9; Hisao Komatsu. 20. Yüzyıl başlarında, p. 3.

<sup>85</sup> M.Mobin Shorish (1984) Islam and nationalism in west Turkestan (Central Asia) on the eve of October revolution, Nationalities Papers, 12:2, 247–263.

<sup>86</sup> Anthony Hyman (1997) Turkestan and pan-Turkism revisited, Central Asian Survey, 16:3, 339–351; Yaacov Ro’i. “The Soviet and Russian context of the development of nationalism in Soviet Central Asia” in En Asie Centrale soviétique Ethnies, nations, États. 1991. Paris; Brophy, D. (2005). Taranchis, Kashgaris, and the “Uyghur Question” in Soviet Central Asia. Inner Asia, 7(2), 163–184; Barton, K.C., & Levstik, L.S. (2004). Teaching History for the Common Good (1st ed.). Routledge, 183–300; Pucek, Z. (2009). The local sources of an idea of homeland. Social

также изложены историко-социальные условия в Туркестане в конце XIX-начале XX века, концепция родины, связанная с идеями тюркизма, особенно идеи независимости и взгляды на термин “Туркестан”<sup>87</sup>. В научных исследованиях узбекских ученых высказывались мнения, связанные с темой родины, понятиями “родина” и “нация”, а также выводы в рамках научных статей<sup>88</sup>. Кроме того, если М.Холмуминова изучала концепт родины в творчестве Рауфа Парфи<sup>89</sup>, то в исследовании М.Жавлиева выявлены национально-культурные концептуальные признаки понятия “Родина-мать”<sup>90</sup>, О.Шарипова анализирует концепт “родина”, отраженный в пословицах<sup>91</sup>, а Н.Мамадалиева выполнила сравнительный анализ концепта «родина» в узбекском и английском языках<sup>92</sup>. Хотя в узбекском языкознании

---

context of education, 47-63; Pochekaev, R. (2019). The Ambition of a Half-Padishah or the Enthusiasm of a Tsarist Administrator? Konstantin von Kaufmann and the Development of Local Government in Tashkent. *Quaestio Rossica*, 7(1), 115–128; Koulos T. Nationalism and the lost homeland: The case of Greece. *Nations and Nationalism*. 2021; 27: 482–496; Anna Triandafyllidou (2022). Religion and nationalism revisited: Insights from southeastern and central-eastern Europe. *Ethnicities*, 24(2), 203–218; Andreas Kappeler. The Russian Empire: A Multi-Ethnic History. Published by Routledge, 2001; Kaiser, R.J. (2003). Homeland Making and the Territorialization of National Identity, 18-19; Ventura, F., & Custodi, J. (2023). Nationality Beyond the Nation-State? The Search for Autonomy in Abdullah Öcalan and Otto Bauer. *Geopolitics*, 29 (4), 1400–1421; Shelef, N. G., & Koo, A. Z.-X. (2022). Homelands and Nationalism. *Nationalities Papers*, 50(3), 417–429; John Agnew, Eric Kaufmann, Erin K. Jenne, Nadav Shelef. Homelands: Shifting Borders and Territorial Disputes. Cornell University Press, Ithaca, NY (2020), 336, bibliog.; index. ISBN (Ithaca NY: Cornell University Press, 2020) ISBN: 978-0801479922. *Political Geography*, Vol. 96, June 2022, (102563) ISSN 0962-6298; Smith, A.D. (2009). Ethno-symbolism and Nationalism: A Cultural Approach (1st ed.). Routledge; Bochkareva, I. (2023). Turkestan Urban Self-Government Institutions in the late 19th – Early 20th Century. *Journal of Frontier Studies*, 8(3), 135-156.

<sup>87</sup> Salih Bıçakcı. Homeland and Nation on the Stage. A Review of *Watan* Concept in Abdalrauf Fitrat and Namık Kemal. In: ОАКА, vol. 1, no. 2 (p. 149–161), 2006. p. 154; Timur Kocaoğlu. ed., Reform Movements and Revolutions in Turkistan: 1900-1924 (Haarlem: SOTA, 2001), p. 20; Timur Kocaoğlu, “Ab-durrauf Fitrat: A Central Asian Intellectual with the Changing Stages of National Identity” in Mehmet Saray Armağanı: Türk Düğnyasına Bakışlar (İstanbul: Da Yayınları, 2003), p. 402.; Bayram, B. (2024). Kazak Atasözleri Penceresinden Modern Ulus Kimlikler. *Bilgi* (108), 27-50; Shylmambetov, S., & Saparov, B. (2023). Some Problems of the Study of the Regional Jadid Movement in Kazakhstan in the Context of the Structure of National Identity. *Bilgi*(104), 179-205; Baymirza Hayit - Basmacılar - Türkistan Milli Mücadelesi Tarihi 1917-1934. Ankara. 1997. p.366; Ömer Lütfi Taşcıoğlu. (2018). Vatan kavramı ve türk milleti için vatanın önemi. *Journal of Academic Social Sciences* 71(71):221-230.

<sup>88</sup> Хамдам У. Янги ўзбек шеърляри: Илмий мақолалар/У.Хамдам; –Т.: “Adib” нашриёти 2012. – Б.133-138; Камолиддин Ш. Комментарий к книге Адиба Халида «Создание Узбекистана. Нация, империя и революция в раннесоветский период». СПб.: Academic Studies Press / Библиороссика, 2022 // Вопросы этногенеза и этнической истории народов Средней Азии. Вып. 7 / Отв. ред. Ш.С.Камолиддин. Saarbrücken: LAP, 2022. С. 103-130; Zaynabidin Abdirashidov. Türkistan ceditçilerinin eserlerinde Türkistan algisi. In book: Tarihî ve edebî metinlerde Türkistan - [cilt 2] Publisher: Hoca Ahmet Yesevi Uluslararası Türk-Kazak Üniversitesi Avrasya Araştırma Enstitüsü (ERI). 2023; Mullaxo‘jayeve R. XX asr o‘zbek she‘riyatida Vatan mavzusi // URL: <http://kh-davron.uz/ijod/rano-mullaxojayeve-xx-asr-ozbek-she-riyatida-vatan-mavzusi.html> (murojaat: 24.11.2020);

